

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI KENGASHINING**  
**2021/2022 O'QUV YILI 1 - YIG'ILISHI**  
**BAYONI**

**2021-yil 30 avgust**  
**Katta yig'inlar zali**

**Buxoro shahri**  
**soat 15:00**

**Raislik qildi:** **O.X. Xamidov** – kengash raisi, Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., prof.  
**Ishtirok etganlar:** **N.G. Dilova** – kengash kotibi, p.f.f.d. (PhD), dots.  
BuxDU kengashi a'zolari umumiy soni: 73 nafar  
Qatnashdi: 70 nafar kengash a'zosi va taklif qilinganlar (ro'yxat asosida)

Buxoro davlat universiteti kengashining 2021-2022 o'quv yilining 1-yig'ilishini kengash raisi, universitet rektori, i.f.d., professor O.X. Xamidov ochib berdi.

Kengash raisi bugungi 1-kengash yig'ilishida 73 nafar kengash a'zosidan 69 nafari ishtirok etayotganligini, 3 nafar kengash a'zosi sababli bugungi kengashda ishtirok etmayotganligini ma'lum qilib, yig'ilishni ochish to'g'risidagi masalani kengash a'zolari hukmiga havola etdi. Kengash a'zolari yig'ilishni ochiq deb qabul qilishni bir ovozdan ma'qullashdi.

Shundan so'ng, kengash kun tartibi o'qib eshittirildi.

**KUN TARTIBI:**

**I. Universitet jamoasi bilan amalga oshiriladigan masalalar yo'nalishi bo'yicha:**

**1.1.** O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 6 avgustda o'tkazgan Hay'at majlisida ko'rilgan masalalar hamda universitetning yangi o'quv yiliga tayyorgarlik holati to'g'risida

**1.2.** Universitet kengashining 2021/2022 o'quv yili uchun ish rejasi va kengash a'zolarining yangi tarkibini tasdiqlash to'g'risida

**(Rektor O.X. Xamidov)**

**1.3.** Buxoro davlat universitetining **Pedagogika instituti Kengashining** 2021/2022 o'quv yili uchun ish rejasi va kengash a'zolari tarkibini tasdiqlash to'g'risida

**(Direktor M.I. Daminov)**

**II O'quv jarayoni yo'nalishi bo'yicha:**

**2.1.** 2021/2022 o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va dolzarb vazifalar to'g'risida.

**2.2.** Universitet o'quv-metodik kengashining 2021-2022 o'quv yili uchun yillik ish rejasini tasdiqlash.

**(O'quv ishlari bo'yicha prorektor v.b. R.G'. Jumayev axboroti)**

**III. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar yo'nalishlari bo'yicha:**

**3.** 2021-yil avgust oyi holatida Buxoro davlat universiteti ilmiy-innovatsion faoliyati natijalari to'g'risida

**(Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor O.S.Qahhorov axboroti)**

#### **IV Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishi bo'yicha:**

4. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligini karantin qoidalariga rioya qilgan holda "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!" shiori ostida universitet miqiyosida nishonlash to'g'risida.

**(Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor A.M. Kadirov axboroti)**

#### **V. TSNQB bo'yicha:**

5.1. Universitet professor-o'qituvchilarining 2020-2021 o'quv yilidagi faoliyati samaradorligini o'rganish natijalari to'g'risida

5.2. Buxoro davlat universiteti Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limining 2021/2022 o'quv yili uchun ish rejasini tasdiqlash to'g'risida

**(TSNQB boshlig'i M.Y.Ergashov axboroti)**

#### **VI. Xalqaro hamkorlik bo'yicha:**

6. Xalqaro hamkorlik hamda Xorijiy OTMLar bilan hamkorlik ishlarining tashkil etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va vazifalar to'g'risida.

**(Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor A.T.Jo'rayev axboroti)**

#### **VII. Tanlovlar.**

7. Kafedra mudiri, professori, dotsenti, katta o'qituvchi va o'qituvchi (asistent) lavozimlariga navbatdagi tanlovlar to'g'risida

**(kengash kotibi N.G.Dilova)**

#### **VIII. Turli masalalar.**

8.1. Universitetning pedagog xodimlari tomonidan tayyorlangan o'quv qo'llanmalarni vazirlik grifini olishga tavsiya berish to'g'risida.

8.2. Ta'lim yo'nalishlarining va mutaxassisliklarning o'quv jarayoni jadvali, ishchi o'quv rejalar, tanlov fan dasturlari va professor-o'qituvchilarning shaxsiy ish rejalarini tasdiqlash hamda ilmiy darajasi bo'lmagan o'qituvchilarga ma'ruza soatlarini ajratish,

8.3. O'quv-uslubiy boshqarma to'g'risida Nizomni tasdiqlash to'g'risida.

**(O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i R.G'.Jumayev axboroti)**

8.4. Universitet ilmiy texnik kengashining 2021-2022 o'quv yili uchun yillik ish rejasini tasdiqlash

8.5. Innovatsion loyihalarni tasdiqlash to'g'risida

1. i.f.n., dotsent N.S.Ibragimov rahbarligida "Creating and implementing an electronic platform for student lodging" (Talabalarni turar-joy bilan ta'minlash elektron platformasini yaratish va joriy etish) mavzusidagi innovatsion loyihani;

2. i.f.f.d. (PhD) Z.S. Nurov rahbarligidagi "Creating an interactive map of halal tourism infrastructure for the Republic of Uzbekistan" (O'zbekiston Respublikasi halol turizm infratuzilmasining interfaol xaritasini yaratish) mavzusidagi innovatsion loyihani;

3. i.f.n., dotsent A.T. Jo'rayev rahbarligidagi "Creation of an electronic platform of entertainment facilities of Bukhara region for local residents and foreign visitors" (Mahalliy aholi va xorijiy sayyohlar uchun Buxoro viloyati ko'ngil ochar maskanlarining elektron platformasini yaratish) mavzusidagi innovatsion loyihalarni O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan e'lon qilingan tashabbuskor ilmiy-tadqiqot loyihalari (52-tur) tanlovida ishtirok etishga tavsiya etish to'g'risida

8.6. Professorlik va dotsentlik unvoniga tanlovlar haqida

**(Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor O.S.Qahhorov axboroti)**

8.6.1. Xorijiy tillar fakulteti dekani, Jo'rayeva Malohat Mahammadovnaning professor ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish haqida.

8.6.2. Buxoro tarixi kafedrasida v.b. professori Hayitov Shodmon Axmadovich professor ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish haqida.

**8.6.3.** Mehnat ta'limi kafedrasini mudiri Jo'rayev Akmal Razzoqovichning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish haqida

**8.6.4.** Mehnat ta'limi kafedrasini v.b. dotsenti Sayfullayeva Dilafro'z Axmadovning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish haqida

**8.7.** BuxDU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazining psixologiya yo'nalishi bo'yicha qayta tayyorlash kursi ishchi o'quv reja va ishchi o'quv dasturlarini tasdiqqa tavsiya etish to'g'risida hamda O'UMLarini chop etishga ruxsat etish to'g'risida

**(BuxDU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi direktori B.R.Adizov axboroti)**

**8.8.** BuxDU kengashining 2020-2021 o'quv yili ish rejasining bajarilganligi to'g'risidagi hisoboti (kengash kotibi N.G.Dilova)

**8.9.** Buxoro davlat universiteti 2021-2022 o'quv yilida talabalar turar joyini oylik to'lov summasini belgilash va uzoq hududlardan kelgan talabalarni shartnoma asosida yotoqxonaga joylashtirish.

**8.9.1.** Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti 2021-yil 28-avgustdagi 04-03/18-sonli xatiga asosan 2021-2022 o'quv yilida talabalar turar joyini oylik to'lov summasini belgilash va uzoq hududlardan kelgan talabalarni shartnoma asosida yotoqxonaga joylashtirish.

**8.10.** Buxoro davlat universitetining Korrupsiyaga qarshi kurashish "Kopmlaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi to'g'risida NIZOMni tasdiqlash to'g'risida

**8.11.** Universitet jamoatchilik kengashining ishga qabul qilish bo'yicha professor-o'qituvchilar kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini zamon talablari asosida baholash mezonini tasdiqlash to'g'risida

Kengash raisi kun tartibiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish mumkinligini ma'lum qilib, kun tartibini tasdiqlab berishni ovozga qo'ydi. Kengash a'zolari kun tartibini bir ovozdan ma'qullashdi hamda masalalar muhokamasi reglamenti belgilab olindi.

## **KUN TARTIBI BO'YICHA MASALALAR MUHOKAMASIGA O'TILDI**

### **I Universitet jamoasi bilan amalga oshiriladigan masalalar yo'nalishi bo'yicha:**

**1.1.** O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 6 avgustda o'tkazgan Hay'at majlisida ko'rilgan masalalar hamda universitetning yangi o'quv yiliga tayyorgarlik holati to'g'risida

**ESHITILDI: O.X. Xamidov** (universitet rektori, kengash raisi) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 6-avgustda o'tkazgan Hay'at majlisida ko'rilgan masalalar hamda universitetning yangi o'quv yiliga tayyorgarlik holati to'g'risida axborot berdi. Oliy ta'lim tizimi oldida turgan vazifalarni tahlil qilgan holda universitet professor o'qituvchilari oldida turgan vazifalar, bugungi kunda ta'lim tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha oldimizda turgan talablar haqida o'z fikrlarini bildirdi.

Buxoro davlat universiteti rektori O.X.Xamidov 2021-2022-o'quv yili 1-yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 6-avgustda o'tkazgan Hay'at majlisida ko'rilgan masalalar hamda universitetning yangi o'quv yiliga tayyorgarlik holati xususida gapirib, universitet faoliyatida bundan keyin raqamlashtirishga 100 foiz o'tish xususida topshiriqlar berildi

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Universitet rektori O.X. Xamidovning O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 6-avgustda o'tkazgan Hay'at majlisida ko'rilgan masalalar hamda universitetning yangi o'quv yiliga tayyorgarlik holati to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 6-avgustda o'tkazgan Hay'at majlisida ko'rilgan masalalar fakultet, bo'lim va kafedralarda o'rganib chiqilsin.
3. Ushbu qaror ijrosi nazorati o'quv ishlari bo'yicha prorektor v.b. R.G'.Jumayev va fakultet dekanlari zimmasiga yuklatilsin.

## 1.2. Universitet kengashining 2021/2022 o'quv yili uchun ish rejasi va kengash a'zolarining yangi tarkibini tasdiqlash to'g'risida

**ESHITILDI: O.X. Xamidov** (universitet rektori, kengash raisi) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011-yil 3-dekabr 487-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasining Ilmiy kengashi to'g'risida namunaviy Nizom"ning 2- va 3-bandlari hamda Universitet kengashining nizomiga asosan, har xil sabablarga ko'ra universitet kengashi tarkibidan chiqarilgan va kiritilgan kengash a'zolarining yangi tarkibi tashkil etilganligini ma'lum qildi. 2021-2022 o'quv yilida kengash tarkibiga prorektorlar, fakultet dekanlari mutaxassis chiqaruvchi kafedra mudirlari, universitet tarkibidagi muassasalar rahbarlari va bo'lim boshliqlaridan iborat 73 nafar kengash a'zolaridan tarkib topganligi ta'kidlab o'tdi.

### Buxoro davlat universiteti kengashining a'zolari tarkibi (*loyiha*)

№	Kengash a'zolarining F.I.O	Lavozimi va ilmiy darajasi
1.	Xamidov Obidjon Xafizovich	<b>BuxDU kengashi raisi, BuxDU rektori, i.f.d., professor</b>
2.	Muqimov Komil Muqimovich	O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademigi, professor
3.	Daminov Mirzoxid Islomovich	Buxoro davlat universiteti Pedagogika instituti direktori, p.f.n.
4.	Kadirov Arif Maxmudovich	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor, p.f.n., dotsent
5.	Qahhorov Otabek Siddiqovich	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, i.f.d. (DSc), dotsent
6.	Jo'rayev Abror Turobovich	Halqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, i.f.n.
7.	Rashidov O'lmasjon Umarovich	Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor
8.	Qahhorov Siddiq Qahhorovich	BuxDU Xodimlar va talabalar kasaba uyushma qo'mitasi raisi, p.f.d., professor
9.	Muxtorov Erkin Mustafoyevich	Buxoro davlat universiteti Pedagogika instituti direktor o'rinbosari, p.f.n., dotsent
10.	Adizov Baxtiyor Raxmonovich	BuxDU huzuridagi pedagogik kadrlar MO va QT mintaqaviy markazi direktori, p.f.d., professor
11.	Jo'rayev Husniddin Oltinboevich	Fizika-matematika fakulteti dekani, p.f.d., professor
12.	Eshankulov Xamza Ilxomovich	Axborot texnologiyalari fakulteti dekani v.v.b., (RhD)
13.	Rajabov No'mon Hakimovich	Pedagogika fakulteti dekani v.v.b.

14.	Jo'rayev Jamshid Raxmatullayevich	Tarix va madaniy meros fakulteti dekani
15.	Niyozov Erkin Dilmurodovich	Tabiiy fanlar fakulteti dekani, t.f.n., dotsent
16.	Artikova Hafiza To'ymurodovna	Agronomiya va biotexnologiya fakulteti dekani, b.f.d., professor
17.	Jo'rayeva Maloxat Muhamadovna	Xorijiy tillar fakulteti dekani, f.f.d., professor
18.	Rajabov Dilshod Zaripovich	Filologiya fakulteti dekani, f.f.d., dotsent
19.	Ma'murov Bahodir Baxshullayevich	Jismoniy madaniyat fakulteti dekani, p.f.d., professor
20.	Yavmutov Dilshod Shoyimardonqulovich	Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani, i.f.n., dotsent.
21.	Tuxsanov Qahramon Rahimboyevich	Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani, f.f.d., dotsent
22.	Baboyev A'lomirza Tulamirzayevich	Chaqiriqqacha harbiy ta'lim fakulteti boshlig'i, podpolkovnik
23.	Sobirov Tolib Ro'ziyevich	Sirtqi (maxsus sirtqi) bo'lim boshlig'i, p.f.n., dotsent
24.	Azimov Sanjar Samadovich	San'atshunoslik fakulteti dekani v.v.b. p.f.f.d. (PhD)
25.	Umurov Zarif Latifboyevich	Maktabgacha ta'lim kafedrası mudiri, p.f.f.d. (PhD)
26.	Ro'ziyeva Mohichehra Yoqubovna	Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent
27.	Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich	Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrası mudiri, p.f.d., dotsent
28.	Baratov Sharif Ramazonovich	Psixologiya kafedrası mudiri, ps.f.d., professor
29.	Olimov Shirinboy Sharopovich	Pedagogika kafedrası mudiri, p.f.d., professor
30.	Nazarov Sayfullo Ibdullayevich	Umumiy va noorganik kimyo kafedrası mudiri v.v.b., T.f.n., dotsent
31.	Avezov Quvondiq G'iyosovich	Organik va fizkolloid kimyo kafedrası mudiri, k.f.f.d.(RhD), dotsent
32.	To'rayev Muxtor Murodovich	Biologiya kafedrası mudiri v.v.b., b.f.n., dotsent
33.	Xolov Yoqub Davronovich	Ekologiya kafedrası mudiri (RhD),
34.	Jumayev Farxod Hojiqurbonovich	Tuproqshunoslik kafedrası mudiri, b.f.n., dotsent
35.	Sho'qurov Rahim Salimovich	Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrası mudiri, prof
36.	Sattorov Anvar Ergashovich	Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrası mudiri, dotsent. v.b.
37.	Fayziyev Shaxobiddin Shavkatovich	Fizika kafedrası mudiri, f.-m.f.f.d. (PhD), dotsent
38.	Dilmurodov Elyor	Matematik analiz kafedrası mudiri v.b.
39.	Durdiyev Umid Durdimurodovich	Differensial tenglamalar kafedrası mudiri (PhD)
40.	Jalolov Ozodjon Isomiddinovich	Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrası mudiri, f.-m.f.n.
41.	Sayidova Nazokat	Axborot texnologiyalari kafedrası mudiri v.b., dots

	Sayfullayevna	
42.	Temirov Farrux Umidovich	Buxoro tarixi kafedrası mudiri, t.f.f.d. (PhD)
43.	Rashidov Oybek Rasulovich	Jahon tarixi kafedrası mudiri, t.f.f.d. (PhD) dotsent
44.	Muzaffarov Firuz Davronovich	Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası mudiri, f.f.f.d. (PhD) dotsent
45.	Namozov Bobir Baxriyevich	Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası mudiri, f.f.d., dotsent
46.	Abdullayev Asliddin Junaydullayevich	Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.f.d. (PhD) dotsent
47.	Tadjiyeva Sayyora Uralovna	Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrası mudiri, i.f.n. dotsent
48.	Nurov Ziyodulla Saymurodovich	Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası mudiri, i.f.f.d. (PhD)
49.	Mamatov Dilshod Kodirovich	Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası mudiri, dotsent
50.	Mirshayev Ulugbek Muzafarovich	Musiqa ta'limi kafedrası mudiri v.b.
51.	Eshonqulov Husniddin Primovich	O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, f.f.d., dotsent
52.	Axmedov Ataullo Raxmatovich	O'zbek tilshunosligi kafedrası mudiri, f.f.n.
53.	Nosirov Otabek Temurovich	Rus tili va adabiyoti kafedrası mudiri
54.	Rasulov Zubaydullo Izomovich	Ingliz tilshunosligi kafedrası mudiri, f.f.n., dotsent
55.	Ataboyev Nozimjon Bobojon o'g'li	Ingliz adabiyoti va stilistika kafedrası mudiri PhD v.b.
56.	Karimova Dilafuz Xalimovna	Nemis va fransuz tillari kafedrası mudiri
57.	Fayzullayev Otabek Muhammedovich	Ingliz adabiyotshunosllgi kafedrası mudiri, f.f.n., dotsent
58.	Kosimova Nafisa Farxadovna	Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrası mudiri, PhD, dotsent
59.	Hikmatova Muqaddas Nurullayevna	Gumanitar yo'nalishlarda chet tili kafedrası mudiri f.f.n, dots
60.	Xodjayeva Dilafro'z Izatilloevna	Tabiiy yo'nalishlarda chet tili kafedrası mudiri, f.f.f.d. (PhD), dotsent
61.	Jo'rayev Akmal Razzoqovich	Texnologik ta'lim kafedrası mudiri (PhD)
62.	Ergashov Mansur Yarashovich	TSNQB boshlig'i, k.f.n., professor
63.	Jumayev Rustam G'aniyevich	O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, s.f.f.d. (PhD)
64.	Turayev Akmal Atayevich	Magistratura bo'limi boshlig'i, f-m.f.f.d. (PhD) dotsent
65.	Said Xamidov	Buyurtmalar portfelini shakllantirish, bitiruvchilarni ishga taqsilash va monitoring bo'limi boshlig'i
66.	Adizov Baxtiyor Ismatovich	Raqamli iqtisodiyot va inson resurslarini boshqarish markazi rahbari
67.	Qilichev Akram Abdusamadovich	Monitoring va ichki nazorat bo'limi boshlig'i
68.	Karimov Feruz Raimovich	O'zb. yoshlar ittifoqi BuxDU boshlang'ich tashkiloti

		yetakchisi
69.	Adizova Obodon Istamovna	Xotin-qizlar kengashi raisi, f.f.f.d. (PhD), dotsent
70.	Najmiddinov Gulmurod Sadriddinovich	Katta yurist konsult
71.	Nusratova Nodira G'aybulloyevna	Xodimlar bo'limi boshlig'i
72.	Raximov Olim Homitovich	Xorijiy OTMLar bilan hamkor likdagi QTDMB bo'limi boshlig'i
73.	Dilova Nargiza Gaybullayevna	BuxDU kengashi kotibi, p.f.f.d. (PhD), dotsent

**Изоҳ:** Кенгаши аъзоси бошқа лавозимга ўтган тақдирда, унинг ўрнига тайинланган шахс бевосита кенгаши аъзоси ҳисобланади.

Yangi 2021-2022 o'quv yili uchun ishlab chiqilgan BuxDU kengashi ish rejasi loyihasi barcha prorektorlar, bo'lim boshliqlari va fakultetlar dekanlari taklif mulohazalari asosidagi matn rektor tomonidan ko'rib chiqilib, tegishli taklif va tuzatishlardan keyin tayyorlanganligi hamda ish rejaning to'liq matni universitet saytiga joylashtirilganligi ta'kidlandi.

Jumladan;

№	Muhokama qilinadigan masalalar
1	Vazirlik Hay'ati qarorlari va buyruqlari hamda boshqa ko'rsatmalari
2	O'quv, o'quv-usuliy ishlarga oid
3	Ilmiy-tadqiqot ishlariga oid
4	Ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlariga oid
5	Moliya-iqtisod ishlariga oid
6	Bo'sh lavozimlarga tanlovlarni tashkil etishga oid
7	Tavsiyalar
7.1.	Professor hamda dotsent ilmiy unvonga tavsiya
7.2.	O'quv- usuliy qo'llanmalarni Vazirlik muvofiqlashtiruvchi kengashi muhokamasiga tavsiya etish
8	Fuqarolarning yozma va og'zaki murojaatlariga oid
9	Ish rejalarni tasdiqlash masalalariga oid
10	Boshqa masalalar

**Izoh:** BuxDU kengashi ish rejasiga kiritilmagan, lekin dolzarb bo'lgan masalalar rejadani tashqari muhokamaga qo'yilishi mumkin.

Kengash raisi universitet kengashining 2020/2021 o'quv yili uchun ish rejasi loyihasini tasdiqlashni ovozga qo'ydi.

Universitet kengashi a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab-quvvatladilar. Qarshilar va betaraflar yo'q.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Universitet rektori O.X. Xamidovning Universitet kengashining 2021/2022 o'quv yili uchun ish rejasi va kengash a'zolarining yangi tarkibini tasdiqlash to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
4. Universitet kengashining 2021/2022 o'quv yili uchun ish rejasi va kengash a'zolarining yangi tarkibi kengash a'zolarining roziligi asosida tasdiqlansin.
5. Ushbu qaror ijrosi o'quv ishlari bo'yicha prorektor v.b. R.G'.Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

### 1.3. Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Kengashining 2021/2022 o'quv yili uchun ish rejasi va kengash a'zolari tarkibini tasdiqlash to'g'risida

**Eshitildi: M.I.Daminov** (Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti direktori) kengash a'zolariga Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Kengashining 2021/2022 o'quv yili uchun ish rejasi va kengash a'zolari tarkibini haqida ma'lumot berdi.

Hurmatli Kengash a'zolari 2021-2022 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Hay'ati qarorlari, Vazirlik buyruqlari, o'quv, o'quv-usuliy, ilmiy-tadqiqot, doktorlik dissertatsiyasi mavzulari, ma'naviy-axloqiy, moliyaviy-iqtisodiy, pedagog xodimlarning bo'sh lavozimlarga tanlov va ilmiy unvonlarga tavsiya berish kabi masalalar muhokama qilindi.

Yangi 2021-2022 o'quv yili uchun ishlab chiqilgan BuxDUning Pedagogika instituti kengashi ish rejasi loyihasi barcha ma'sullarga, bo'lim boshliqlari va fakultetlar dekanlari taklif mulohazalari asosidagi ko'rib chiqilib, tegishli taklif va tuzatishlardan keyin tayyorlanganligi hamda ish rejaning to'liq matni institut saytiga joylashtirilganligi ta'kidladi.

Jumladan

№	Муҳокама қилинадиган масалалар
1	Вазирлик Хайъати қарорлари ва буйруқлари ҳамда бошқа кўрсатмалари
2	Ўқув, ўқув-усулий ишларга оид
3	Илмий-тадқиқот ишларига оид
4	Маънавий-ахлоқий тарбия ишларига оид
5	Молия-иқтисод ишларига оид
6	Бўш лавозимларга танловларни ташкил этишга оид
7	Тавсиялар
7.1.	Профессор ҳамда доцент илмий унвонга тавсия
7.2.	Ўқув- усулий қўлланмаларни Вазирлик мувофиқлаштирувчи кенгаши муҳокамасига тавсия этиш
8	Фуқароларнинг ёзма ва оғзаки мурожаатларига оид
9	Иш режаларни тасдиқлаш масалаларига оид
10	Бошқа масалалар

Изоҳ: БухДУнинг Педагогика институти кенгаши иш режасига киритилмаган, лекин долзарб бўлган масалалар режадан ташқари муҳокамага қўйилиши мумкин.

Institut kengashi a'zolari tarkibi 2021-2022 o'quv yilida direktor o'rinbosari, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, universitet tarkibidagi muassasalar rahbarlari va bo'lim boshliqlaridan iborat 22 nafar kengash a'zolaridan tarkib topganligi ta'kidlab o'tdi hamda ularni o'qib eshitirdi:

#### BUXORO DAVLAT UNIVERSITETINING PEDAGOGIKA INSTITUTI KENGASHI A'ZOLARI

T/r	Kengash a'zolarining F.I.O	Lavozimi va ilmiy darajasi
1	Daminov Mirzohid Olimovich	Buxoro davlat universiteti pedagogika instituti, p.f.n.
2	Muxtorov Erkin Mustafoyevich	O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, p.f.dn, dotsent
3	Niyozov Alisher Kamilovich	O'quv bo'lim boshlig'i, t.f.f.d.
4	Umedov Shokir	Marketing bo'lim boshlig'i
5	G'aybullayeva Nafisa Husanjon qizi	Tabiiy va aniq fanlar fakulteti dekanı, f.f.f.d. (PhD), doцент в.б.
6	Jo'rayev Akmal Razzoqovich	Pedagogik ta'lim fakulteti dekani p.f.f.d., (PhD), doцент
7	Izbullayeva Gulchehra Valeriyevna	Pedagogika, psixologiya va texnologik ta'lim kafedrası mudiri, (PhD), doцент
8	Umurov Zarif Latifboyevich	Sirtqi (maxsus sirtqi) bo'limi boshlig'i, (PhD)
9	Saidova Mohinur Jonpulatovna	Kafedra mudiri, 1 hissada kafedra o'qituvchisi, (PhD), dotsent в.б.
10	Abdullayev Mehriddin Djunaydillayevich	Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti kafedrası mudiri, p.f.f.d (PhD), профессор



11	Ikramov Amirbek Aminovich	Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'i, п.ф.ф.д. (PhD)
12	Yarashev Jo'rabek To'rayevich	San'atshunoslik kafedrası mudiri, п.ф.ф.д.,(PhD),доцент в.б.
13	Sharipov Abduhakim Ziyoiddinovich	Gumanitar fanlar kafedrası mudiri, ф.ф.н., dotsent
14	Tosheva Dildora Abdumalikovna	O'zbek va rus tillar kafedrası mudiri, ф.ф.ф.д. (PhD)
15	Mavlonov Ahmad Muhamadovich	Tabiiy fanlar kafedrası mudiri, Geografiya fanlari nomzodi
16	Қадирова Нарғиза Арифовна	Xorijiy tillar kafedrası mudiri
17	Qurbonov Sadridin Qoraboyevich	Ichki nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i
18	Rajabov San'at Sunnatovich	MM bo'lim boshlig'i
19	Jo'rayev Qo'ldosh	ATM rahbari
20	Mirxodjayev Akmal	BDUPI yuristi
21	Majidov Obid	Moliyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
22	Nurova Firuza Kamolovna	BDUPI kengash kotibi

Kengash raisi Kengash a'zolaridan Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Kengashining 2021/2022 o'quv yili uchun ish rejasi tasdiqlab berishni so'radi. Kengash a'zolari ochiq ovoz bilan tasdiqlab berishdi.

Rozilar – 70 ta.

Qarshilar - Yo'q.

Betaraflar - Yo'q.

Taklif bir ovozdan tasdiqlandi.

Kengash raisi kengash a'zolaridan Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Kengash a'zolari tarkibini tasdiqlab berishni so'radi. Kengash a'zolari ochiq ovoz bilan tasdiqlab berishdi.

Universitet kengashi a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab-quvvatladilar.

Rozilar – 70 ta.

Qarshilar - Yo'q.

Betaraflar - Yo'q.

Taklif bir ovozdan tasdiqlandi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti direktori M.I.Daminovning Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Kengashining 2021/2022 o'quv yili uchun ish rejasi va kengash a'zolari tarkibini haqida ma'lumoti axborot uchun qabul qilinsin.
2. Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Kengashining 2021/2022 o'quv yili uchun ish rejasi va kengash a'zolari tarkibi tasdiqlansin.

## **II O'quv jarayoni vo'nalishi bo'yicha:**

### **2.1. 2021/2022 o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va dolzarb vazifalar to'g'risida.**

**ESHITILDI: R.G'.Jumayev** (O'quv ishlari bo'yicha prorektor v.b.) kengash a'zolariga 2021/2022 o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va dolzarb vazifalar to'g'risida axborot berdi.

**2021/2022 o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va dolzarb vazifalar to'g'risida**

2021/2022 o'quv yilida universitetda jami **67** ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi kunduzgi shaklda talabalar tahsil oladi. Bakalavriat kunduzgi ta'lim shakli 1-kursda **45** ta, 2-kursda **56** ta, 3-kursda **45** ta, 4-kursda **31** ta ta'lim yo'nalishlari hamda 1-kursda **28** ta, 2-kursda **31** ta magistratura mutaxassisliklari mavjud.

Universitetda 2021/2022 o'quv yilida tahsil oladigan talabalarning umumiy kontingenti **22 663** (bakalavriat – **21 939** nafar, magistratura – **724** nafar) nafarni tashkil etishi (qo'shimcha qabul, 5 yillik mehnat staji, 2-mutaxassislikdan tashqari) kutilmoqda. Jumladan, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha Kunduzgi shaklda – **15 826** nafar, Sirtqi shaklda – **4 155** nafar, Kechki shaklda – **1 048** nafar, 2-mutaxassislik Sirtqi shaklda – **528** nafar, xorijiy OTMLar bilan qo'shma ta'lim dasturlari bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha - **382** nafar, magistratura mutaxassisliklari bo'yicha – **655** nafar, xorijiy OTMLar bilan qo'shma ta'lim dasturlari magistratura mutaxassisliklari bo'yicha – **69** nafar.

Mavjud barcha yo'nalishlar (kunduzgi, sirtqi) 2-4 kurslar va magistratura mutaxassisliklari uchun ishchi o'quv rejalarini tayanch OTMLardan olingan o'quv rejalar asosida, kadrlar buyurtmachilari bilan kelishilgan holda tayyorlangan.

1-kurslar uchun o'quv rejalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 16-iyuldagi 311-sonli "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'risida"gi xatiga asosan mutaxassislik kafedra professor-xodimlari tomonidan kadrlar buyurtmachilarining takliflarini inobatga olgan holda kredit-modul tizimi asosida tayyorlanmoqda (*Loyihalar tayyor, tasdiqlanmagan*). Ishchi o'quv rejalar asosida yangi o'quv yili uchun universitetning umumiy yuklamasi hisoblangan (*1-ilova*).

Kafedralar tomonidan yangi o'quv yili uchun dars soatlari hajmi tayyorlangan. Qisqa muddatda professor o'qituvchilarning dars soatlari taqsimoti tayyorlanib pedagog xodimlarga taqdim etilishi rejalashtirilgan.

Universitetda 2021/2022 o'quv yilida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan. Fakultet dekanlari va kafedra mudirlariga kredit-modul bo'yicha 2021-yil 27-30-iyun kunlari O'zMU O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i V.Topildiyev, 7-10-iyul kunlari TDIU Akademik faoliyat va registrar boshqarmasi (Academic Affairs and Registrar's office)dan M.Sultanov hamda F.Nasriddinovlar BuxDU taklifi asosida kelib, tegishli me'yoriy va o'quv-uslubiy hujjatlarni yangi 2021/2022 o'quv yiliga tayyorlash bo'yicha seminar-treninglar o'tkazdilar. Yosh o'qituvchilar uchun BuxDU huzuridagi Pedagog kafedrlarni tayyorlash va malakasini oshirish markazi hamda universitetning Pedagogika kafedrasini professor-o'qituvchilari tomonidan mahorat darslari tashkil etildi. Hisobot davrida fakultet va kafedra Nizomlari ishlab chiqildi.

2021/2022 o'quv yili uchun **38** ta kafedrada professor o'qituvchilarning tarkibi shakllantirilgan. Hozirda universitetda **868** (**43** nafari fan doktori, professor, **203** nafari fan nomzodi dotsent, **622** nafari ilmiy darajaga ega bo'lmagan) nafar professor-o'qituvchi faoliyat yuritmoqda. Ilmiy salohiyat **28,3%** ni tashkil qiladi. Kafedra professor - o'qituvchilarining salohiyatini hisobga olgan holda o'quv yuklamalari shakllantirilgan.

Mutaxassislik kafedralar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 16-iyuldagi 311-sonli "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'risida"gi xatining 8-ilovasiga asosan o'quv rejalar va fan dasturlarining loyihalari ishlab chiqilgan va universitetda tuzilgan ekspertiza komissiyasiga taqdim etilgan.

Kafedrada faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar tomonidan tegishli fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lib, fakultetlar tomonidan tasdiqlangan hamda universitet metodik kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etilgan.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 6-avgustdagi Hay'at majlisida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, kursdan-kursga o'tkazish buyruqlari lotin yozuvi asosida amalga oshirilmoqda. Talaba shaxsiy varaqasi, reyting daftarchasi va qaydnomalari to'ldirildi.

Buxoro davlat universitetida 2020/2021 o'quv yilida bitiruvchi talabalar soni 3806 nafarni tashkil qiladi. Bitiruvchilar uchun oliy ma'lumot to'g'risidagi bakalavr va magistr diplomlarini rasmiylashtirishni amalga oshirish uchun <http://hemis.buxdu.uz> platformasiga 3538 nafar bakalavr, (2502 nafar kunduzgi, sirtqi (ikkinchi oliy ta'lim)-246 nafar, maxsus sirtqi -790 nafar), 248 nafar

magistratura va 20 nafar xorijiy OTMLar bilan hamkorlikdagi qo'shma ta'lim dasturlar bitiruvchilarining ma'lumotlari kiritildi.

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazidan 2020/2021 o'quv yili bitiruvchilari uchun 3538 ta bakalavr diplom blankalari ilovalari bilan, 268 ta magistr diplom blankalari ilovalari bilan olindi va chop etildi. BuxDUda 2021-yil 23-iyuldan bitiruvchilarga diplom va ilovalar berilishi boshlangan, hisobot davrida 2523 nafar bitiruvchilarga diplomlar tarqatildi. Bitiruvchilarga "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish - HEMIS" axborot tizimi (<http://student.buxdu.uz/dashboard/diploma>) havolasi orqali diplomlarning fayllarini yuklab olish bo'yicha tushuntirish berilgan.

Universitetda Uniwork platformasi faoliyat yuritib, mazkur tizimda talabalar bilimini baholashning elektron qaydnoma orqali onlayn tarzda amalga oshirilgan.

Universitet kredit-modul tizimiga o'tganligi sababli 2020/2021 o'quv yiliga 1-kurs talabalari HEMIS platformasiga ro'yxatdan o'tkazilgan hamda o'qitiladigan fanlardan resurslar va nazorat baholari kiritib borilgan. Hozirda universitetdagi barcha talabalar HEMIS va UNIWORK platformalarida ro'yxatdan o'tkazilgan.

Yangi o'quv yili uchun o'qitiladigan fanlardan o'quv kontentlarni shakllantirish ishlari boshlangan.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. 2021/2022 o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va dolzarb vazifalar to'g'risidagi o'quv ishlari bo'yicha prorektor v.v.b. R.G'.Jumayev hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2021/2022 o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va dolzarb vazifalar to'g'risidagi o'quv ishlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar qoniqarli deb hisoblansin.

3. 2021/2022 o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va dolzarb vazifalarning natijalari yuzasidan mazkur kengash qarori barcha fakultetlar kengashlarining navbatdagi yig'ilishlarida muhokama qilinsin va ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish chora – tadbirlari belgilansin. (mas'ullar: fakultet dekanlari; muddat: bir oy davomida).

4. Universitet professor-o'qituvchilarining 2021-yilda reja asosida malaka oshirish kurslariga qatnashishlari ta'minlansin. (mas'ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari)

5. Mazkur qarorlarning ijro nazorati o'quv ishlari bo'yicha prorektor v.v.b. R.G'. Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

## **2.2. Universitet o'quv-metodik kengashining 2021-2022 o'quv yili uchun yillik ish rejasini tasdiqlash.**

**ESHITILDI: R.G'.Jumayev** (O'quv ishlari bo'yicha prorektor v.b.) kengash a'zolariga Universitet o'quv-metodik kengashining 2021-2022 o'quv yili uchun yillik ish rejasini loyixasi bilan tanishtirdi va uni tasdiqlab berishni so'radi.

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi. Muhokama so'ngida universitet rektori, kengash raisi O.Xamidov Universitet o'quv-metodik kengashining 2021-2022 o'quv yili uchun yillik ish rejasini tasdiqlashni ovozga qo'ydi.

Rozilar -69 nafar

Qarshilar - yo'q

Betaraflar - yo'q

Universitet o'quv-metodik kengashining 2021-2022 o'quv yili uchun yillik ish bir ovozdan tasdiqlandi.;

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i R.G'.Jumayevning Universitet o'quv-metodik kengashining 2021-2022 o'quv yili uchun yillik ish rejasi лойиҳаси ҳақида берган ахбороти маълумот учун қабул қилинсин.
2. Kengash a'zolari tavsiyasiga ko'ra, Universitet o'quv-metodik kengashining 2021-2022 o'quv yili uchun yillik ish rejasi tasdiqlansin.
3. Mazkur qaror ijro nazorati O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i R.G'.Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

### **III. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar yo'nalishlari bo'yicha:**

3. 2021-yil avgust oyi holatida Buxoro davlat universiteti ilmiy-innovatsion faoliyati natijalari to'g'risida

**ESHITILDI: O.S.Qahhorov (Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor)** 2021-yil avgust oyi holatida universitetda faoliyat ko'rsatgan professor-o'qituvchilarning umumiy soni 868 nafardan iborat bo'lib, shundan fan doktorlari, professorlar, DScler soni 44 nafar, fan nomzodi va dotsentlar, falsafa doktori (PhD) 228 nafar, 7 nafar doktorant (DSc), 135 nafar tayanch doktorantlar hamda 156 nafar mustaqil izlanuvchilar faoliyat ko'rsatmoqda. Universitet bo'yicha ilmiy salohiyat 31,3 % ni tashkil etadi.

**1. Universitetda o'tkaziladigan xalqaro hamda respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, forumlar to'g'risida** 1.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2- martdagi 78-F-sonli Farmoyishi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida 2021-yilda xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasi"da belgilangan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida universitetda 10 ta xalqaro, 11 ta respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarni yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish rejalashtirilgan.

Shunga ko'ra 2021-yilning yanvar - avgust oylarida 5 ta xalqaro va 6 ta respublika miqyosidagi anjumanlar yuqori saviyada o'tkazildi. O'tkazilgan konferensiyalarda xorijiy davlatlar Rossiya, Turkiya, Hindiston, AQSH, Fransiya, Italiya, Qozog'iston, Qozon, Malayziya, Tojikiston, Qirg'iziston kabi xorijiy davlatlarning nufuzli oliy o'quv yurtlaridan 50 nafarga yaqin professor o'qituvchilar ishtirok etishdi hamda respublika oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari ham ishtirok etdi. Konferensiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar viloyat OAV va universitet internet sahifalarida joylashtirildi.

1.2. Joriy yilning 26-may kuni "O'zbekiston – Rossiya oliy ta'lim muassasalari rektorlarining uchinchi mintaqalararo konferensiyasi" bo'lib o'tdi. Unda ikki davlat Prezidentlari administratsiyalari, Ho'qumat rahbarlari, O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri va Rossiya Federatsiyasini Ta'lim va fan vaziri hamda Rossiyaning 20 dan ortiq nufuzli oliy ta'lim muassasalari rektorlari ishtirok etdi.

Hududlararo konferensiyaning maqsadi O'zbekiston va Rossiya o'rtasida zamonaviy yo'nalish va mutaxassisliklar bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash hamda ilmiy-tadqiqot sohasida o'zaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishdan iborat.

Rossiyaning nufuzli oliy ta'lim muassasalari va respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalari o'rtasida malakali mutaxassislarni hamkorlikda tayyorlash maqsadida qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha shartnomalar imzolandi.

1.3. Joriy yilning 23-iyun kuni O'zbekiston – Vengriya rektorlar forumi bo'lib o'tdi. Bu forumga Vengriya universitetlari rektorlari tashrif buyurishdi.

Forumda Vengriyadan tashrif buyurgan nufuzli delegatsiya qatorida boshqa viloyat – Navoiy, Xorazm hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy o'quv yurtlari rektorlari, oliy dargohlarning filial direktorlari ishtirok etishdi.

Forum doirasida jami 10 memorandum imzolaniib, Buxoro davlat universiteti Vengriyaning 4 universiteti bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatdi. Etyyosh Lorand universiteti, Secheni Istvan universiteti, Debretsen universiteti, Budapesht texnologiya va iqtisodiyot universiteti shular jumlasidandir.

### **2. 2021-yilda Scopus ma'lumotlar bazasidagi ilmiy jurnallarda fakultetlar kesimida indeksatsiyalangan maqolalar to'g'risida**

Universitet kafedralarida faoliyat ko'rsatayotgan professor o'qituvchilar tomonidan muntazam ravishda Scopus, Web of Science kabi xalqaro ma'lumotlar bazalariga kiritilgan jurnallarda ilmiy maqolalarni chop etish natijadorligi qoniqarsiz bo'lib, 2021-yilning avgust oyi holatida jami chop etilgan maqolalar soni 15 tani tashkil etadi. Jumladan:

Fizika-matematika fakultetida 4 ta, Axborot texnologiyalari fakultetida 3 ta, Agronomiya va biotexnologiya fakultetida 3 ta, Tabiiy fanlar fakultetida 3 ta, Iqtisodiyot va turizm fakultetida 1 ta, Tarix va madaniy meros fakultetida 1 ta Scopus xalqaro ma'lumotlar bazalariga kiritilgan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etilgan.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim, Filologiya, Xorijiy tillar, Jismoniy madaniyat, San'atshunoslik, Pedagogika va Chaqiriqqacha harbiy ta'lim professor o'qituvchilari tomonidan Scopus xalqaro ma'lumotlar bazalariga kiritilgan jurnallarda ilmiy maqola chop etilmagan.

Universitet professor-o'qituvchilari tomonidan 912 ta xalqaro, 372 ta respublika ilmiy jurnallarida ilmiy maqolalar, 111 ta monografiya, 30 ta o'quv-uslubiy qo'llanmalar, 74 ta o'quv qo'llanmalar hamda 25 ta darsliklar chop etilgan va 99 ta mualliflik guvohnomalari olingan.

### **3. Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashlarning faoliyati to'g'risida ma'lumot**

Buxoro davlat universiteti huzurida 8 ta ilmiy kengashlarda 4 ta ixtisoslik bo'yicha fan doktori (DSc) va 14 ta ixtisoslik bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalarini beruvchi ilmiy kengashlar faoliyat olib bormoqda.

2021-yil avgust oyi holatida kengashlarda 49 ta ariza qabul qilingan. O'tkazilgan seminarlar soni 44 ta, shulardan himoyalar soni 48 tani tashkil etadi. Himoya qilgan talabgorlarning 28 nafari universitet mustaqil izlanuvchisi va tayanch doktorant (PhD)lari hisoblanadi.

Kengash ekspertlari va taqrizchilari tomonidan 11 nafar talabgorlarning dissertatsiya ishlari ko'rib chiqilmoqda hamda 10 nafar talabgorlarning dissertatsiyalari OAK veb saytida himoyaga e'lon uchun tayyorlanmoqda. Joriy yilning yakuniga qadar ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlarda 25 ta doktorlik dissertatsiyalari himoyalari rejalashtirilgan.

Joriy yilning 23-avgustdan 31-avgustgacha ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlarida universitet hamda respublikamizning turli OTM laridan mustaqil izlanuvchi va tayanch doktorantlar (PhD) ning dissertatsiya ximoyalari bo'lib o'tadi va ushbu hafta universitetda ximoyalar haftaligi deb e'lon qilindi.

### **4. 2021-yilda davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida bajarilayotgan hamda moliyalashtirish uchun yakuniy bosqichda ko'rib chiqilayotgan loyihalar**

Bugungi kunda Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida Pedagogika fakulteti, Psixologiya kafedrasida ps.f.d., prof. SH.R. Barotov rahbarligida 2021-2022-yillarga mo'ljallangan "Oila psixologiyasi" fanidan multimedia mahsulotlarini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyiha (yillik summasi 500,0 mln. so'm, umumiy summasi 1 mlrd. so'm) hamda Filologiya fakulteti, O'zbek tilshunosligi kafedrasida f.f.d., professor M.K. Abuzalova rahbarligida 2021-2023-yillarga mo'ljallangan "Tibbiyotga oid atamalar elektron platformasini yaratish" мавзусидаги амалий лойиҳа (йиллик суммаси 300,0 млн. сўм, умумий суммаси 900,0 млн. сўм) бажарилмоқда.

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi Hay'ati universitet Iqtisodiyot kafedrasida dotsenti, i.f.n. M.A. Oripov rahbarligida ishlab chiqilgan "Buxoro viloyatida granulali omuxta yem ishlab chiqarishni tashkil etish" loyihasini 454,0 mln. so'mga hamda Umumiy va noorganik kimyo kafedrasida professori, t.f.d. M.R. Amonov rahbarligida ishlab chiqilgan "Resurs tejankor ohorlovchi polimer-kompozitsiyalar yaratish va to'qimachilik korxonalarida joriy yetish texnologiyasi" tijoratlashtirishga tayyorlash loyihasini 492,4 mln. so'mga moliyalashtirishga qaror qildi. Ushbu loyihalar mos ravishda "Novator chorvador" MCHJ hamda "Sharq Business Solution" MCHJlari bilan hamkorlikda Romitan innovatsion hududida amalga oshiriladi. Ushbu loyihalar bo'yicha universitet hamda tashkilotlar o'rtasida litsenziya shartnomalari imzolangan.

Tuproqshunoslik kafedrasida dotsenti, b.f.n. F.H. Jumayev rahbarligida ishlab chiqilgan "Buxoro viloyatida tuproq unumdorligini yaxshilash maqsadida soya va soyaning genetik-1 navini yetishtirish va urug'chilikni tashkil etish" mavzusidagi, Umumiy va noorganik kimyo kafedrasida professori, t.f.d. M.R. Amonov rahbarligida ishlab chiqilgan "To'qimachilik korxonalarida ohorlash jarayonini takomillashtirish texnologiyasi" mavzusidagi hamda Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasida o'qituvchisi N.X. Ergashev rahbarligida ishlab chiqilgan "Blokcheyn texnologiyasidan foydalangan holda sun'iy intellektga asoslangan onlayn ta'lim uchun platforma ishlab chiqish" startap loyihasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan moliyalashtirish uchun yakuniy bosqichda ko'rib chiqilmoqda.

## **5. 2021-yil avgust oyi holatida fakultet va kafedralar kesimida fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi innovatsion korporativ hamkorlik shartnomalari rejasining bajarilish holati to'g'risida**

2021-yilning avgust oyi holatida kafedralarda ilmiy tadqiqot ishlarini bajarilishi yuzasidan viloyatdagi turli tashkilotlar va sanoat korxonalarini bilan 343 ta (umumiy summasi 532,4 mln. so'm) fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi innovatsion korporativ hamkorlik shartnomalari imzolangan bo'lib, umumiy tushum miqdori 403,4 mln. so'mni tashkil etmoqda. Universitetda bo'yicha belgilangan yillik rejaning bajarilish holati 46,5 % ni tashkil etadi. Xo'jalik shartnomalarining belgilangan reja asosida bajarilishini fakultetlar kesimida tahlilini ko'radigan bo'lsak, natijalari quyidagicha:

Fizika-matematika fakultetida belgilangan reja 70,1 % ga bajarilgan. Umumiy tushum miqdori 40,6 mln. so'mni tashkil etadi.

Axborot texnologiyalari fakultetida belgilangan reja 76,9 % ga bajarilgan. Umumiy tushum miqdori 30,0 mln. so'mni tashkil etadi.

Tabiiy fanlar fakultetida belgilangan reja 91,6 % ga bajarilgan. Umumiy tushum miqdori 46,7 mln. so'mni tashkil etadi.

Agronomiya va biotexnologiya fakultetida belgilangan reja 48,2 % ga bajarilgan. Umumiy tushum miqdori 27,0 mln. so'mni tashkil etadi.

Xorijiy tillar fakultetida belgilangan reja 30,2 % ga bajarilgan. Umumiy tushum miqdori 54,0 mln. so'mni tashkil etadi.

Filologiya fakultetida belgilangan reja 39,7 % ga bajarilgan. Umumiy tushum miqdori 30,9 mln. so'mni tashkil etadi.

Tarix va madaniy meros fakultetida belgilangan reja 8,2 % ga bajarilgan. Umumiy tushum miqdori 6,5 mln. so'mni tashkil etadi.

Pedagogika fakultetida belgilangan reja 41,9 % ga bajarilgan. Umumiy tushum miqdori 27,6 mln. so'mni tashkil etadi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakultetida belgilangan reja 24,7 % ga bajarilgan. Umumiy tushum miqdori 24,0 mln. so'mni tashkil etadi.

Iqtisodiyot va turizm fakultetida belgilangan reja 45,8 % ga bajarilgan. Umumiy tushum miqdori 31,6 mln. so'mni tashkil etadi.

Jismoniy madaniyat fakultetida belgilangan reja 28,6 % ga bajarilgan. Umumiy tushum miqdori 14,8 mln. so'mni tashkil etadi.

San'atshunoslik fakultetida belgilangan reja 126,3 % ga bajarilgan. Umumiy tushum miqdori 69,5 mln. so'mni tashkil etadi.

## **6. Buxoro viloyati oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida tashkil etilgan "Innovatsion loyihalar" tanlovi g'oliblari to'g'risida ma'lumot**

Joriy yilning 25-iyun sanasida "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" harakati ostida viloyatimizda keng miqyosda o'tkazilayotgan "Yoshlar festivali" doirasidagi Buxoro davlat universiteti huzuridagi Biznes akseleratorda viloyatdagi oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida Innovatsion loyihalar tanlovini tashkil etildi.

Tanlovning umumiy sovrin jamg'armasi 100,0 mln. so'mni tashkil etdi. Tanlovda "Xizmat ko'rsatish sohalari va turizmni rivojlantirish", "IT texnologiyalar", "Tibbiyot", "Fan va ta'lim", "Qishloq va suv xo'jaligi hamda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish", "Energetika va sanoat tarmoqlarini rivojlantirish", "Ekologiya va atrof muhit muhofazasi" yo'nalishlarida viloyatdagi barcha oliy ta'lim muassasalaridan 69 nafar, Buxoro davlat universitetidan 46 nafar iqtidorli talaba va magistrlar ishtirok etishdi.

Tanlov yakunida viloyatdagi OTMning 15 nafar talabalari g'oliblikni qo'lga kiritishdi. Jumladan, 5 nafar talaba 10,0 mln. so'm va 10 nafar talaba 5,0 mln. so'm miqdoridagi sertifikatlarni Buxoro viloyati hokimi Botir Zaripovdan qabul qilib olishdi. Quvonarlisi, yuqoridagi g'olib talabalarning 8 nafari Buxoro davlat universiteti talabalari hisoblanishadi. 8 nafar g'olib talabaning 3 nafari 10,0 mln. so'mlik, 5 nafari 5,0 mln. so'mlik sertifikatlar bilan taqdirlanishdi.

## **7. Talabalar respublika onlayn fan olimpiadasi g'oliblari to'g'risida ma'lumot**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 31-martdagi "Oliy ta'lim muassasalari talabalari respublika onlayn fan olimpiadasini 2021-yilda tashkil etish va o'tkazish to'g'risida" gi 159-sonli buyrug'i tasdiqlandi. Buyruqga asosan Buxoro davlat universiteti rektorining

2021-yil 3-martdagi “2021-yilda talabalar Respublika fan olimpiadasi I bosqichini tashkil qilish va o‘tkazish to‘g‘risida” 139-sonli buyrug‘i qabul qilindi va 2021-yil 5-12-aprel kunlari Buxoro davlat universitetida Respublika fan olimpiadasining 1-bosqichi “Oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘rtasida o‘tkaziladigan respublika onlayn fan olimpiadasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablari asosida o‘tkazildi.

1-bosqich natijalariga ko‘ra 94 nafar talaba 47 ta fan kesimida g‘olib deb topildi va 2-bosqichga yo‘llanma oldi.

2021-yilning 28-31-may kunlari ijodiy imtixonlar, 1-4-iyun kunlari onlayn testlar o‘tkazildi. Respublika bosqichiga yo‘llanma olgan 94 nafar BuxDU talabalari 46 ta fan kesimida tanlovlarda ishtirok etdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021-yil 30-iyuldagi “Oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘rtasida 2021-yil o‘tkazilgan respublika onlayn fan olimpiadasining yakuniy natijalari to‘g‘risida”gi 321-sonli buyrug‘iga muvofiq Buxoro davlat universitetining 14 nafar talabalari g‘olib deb topildi.

Buxoro davlat universiteti talabalaridan 8 nafari birinchi o‘rinni, 3 nafari ikkinchi o‘rinni va 3 nafari uchinchi o‘rinni egalladilar. Respublika oliy ta‘lim muassasalari miqyosida Buxoro davlat universiteti jamoasi 2-o‘rinni egalladi. G‘olib talabalarni va ularning ilmiy rahbarlarini munosib taqdirlash bo‘yicha Buxoro davlat universiteti rektorining 2021-yil 2-avgustdagi “Oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘rtasida 2021-yilda o‘tkazilgan talabalar respublika onlayn fan olimpiadasi g‘oliblarini “Moddiy rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi 338-01-U- sonli buyrug‘i ishlab chiqildi va 1-o‘rinni egallagan talabalar va ularning ilmiy rahbarlari 3,0 mln. so‘mdan, 2-o‘rinni egallagan talabalar va ularning ilmiy rahbarlari 2,0 mln. so‘mdan, 3-o‘rinni egallagan talabalar va ularning ilmiy rahbarlari 1,0 so‘mdan moddiy rag‘batlantirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020-yil 6-noyabrdagi “Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasini ta‘sis etish to‘g‘risida”gi qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021-yil 7-maydagi 3/10-586-B sonli xatiga muvofiq joriy yilda ilk marotaba Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasi tanlovi tashkil etildi.

Tanlovning 1-bosqichi Buxoro davlat universiteti rektorining 2021-yil 21-maydagi 256-U-sonli buyrug‘iga asosan universitet miqyosida o‘tkazildi, unda 6 nafar talaba ishtirok etib 2 nafar talaba g‘olib deb topildi. Tanlovning keying bosqichi uchun g‘oliblarning hujjatlari O‘zbekiston Respublikasi badiiy akademiyasiga taqdim etildi. O‘zbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasining 2021-yil 4-avgustdagi “Talabalarga Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasini tayinlash va to‘lash to‘g‘risida”gi I-103-sonli buyrug‘iga asosan respublika miqyosida 39 nafar ishtirokchidan 7 nafari 7 ta yo‘nalish bo‘yicha g‘olib deb topildi. Shu qatorda San‘atshunoslik fakulteti 3-bosqich talabasi Ibrohimova Oysha Ulug‘bek qizi “Dastgohli rang tasvir” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor O.S. Qahhorovning 2021-yil avgust oyi holatida Buxoro davlat universiteti ilmiy-innovatsion faoliyati natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumoti axborot uchun qabul qilinsin.

2. O‘tkazilgan halqaro va Respublika miqyosidagi anjumanlar yakuni bo‘yicha qabul qilingan tavsiyalarni iqtisodiyotning tegishli tarmoq va sohasiga tadbqiq etish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi manfaatdor tashkilotlar bilan kelishilgan holda tasdiqlansin (mas‘ul: tegishli fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, IT, I va IPKTB boshlig‘i).

3. Anjumanlar o‘tkazilgandan so‘ng 3 kun muddatda anjuman yakuni bo‘yicha qabul qilingan tavsiyalarni amaliyotga tadbqiq etish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturining bajarilishi hamda anjumanlarning ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi to‘g‘risidagi hisobotlar Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limiga taqdim etilsin (mas‘ul: tegishli fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, IT, I va IPKTB boshlig‘i).

4. Kafedralarda faoliyat ko‘rsatayotgan professor o‘qituvchilar tomonidan muntazam ravishda Scopus, Web of Science kabi xalqaro ma‘lumotlar bazalariga kiritilgan hamda OAK tasarrufidagi (xalqaro va respublika) jurnallarda ilmiy maqolalarning chop etish natijadorligi bo‘yicha maqsadli va manzilli

ishlar tashkil etilsin (mas'ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, IT, I va IPKTB boshlig'i).

5. Oliy attestatsiya kommissiyasiga sifat jihatdan mo'qammal tayyorlangan hujjatlarni taqdim etish va himoya kengashlarida himoya qilinayotgan doktorlik dissertatsiyalarning sifat va natijadorligini oshirish hamda ilmiy seminarlar va himoyalarni tashkil qilish jarayonida har qanday korrupsiya holatlarini oldini olish, ta'magirlik holatlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ilmiy kengash raislari, ilmiy kotiblari mas'uliyati oshirilsin (mas'ul: Kengash raislari, kengash kotiblari, ilmiy kengashlarning ilmiy kotibi, IT, I va IPKTB boshlig'i).

6. Fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi innovatsion korporativ hamkorlik shartnomalari bo'yicha belgilangan yillik reja ko'rsatkichlarini muddatidan oldin bajarganligi uchun San'atshunoslik fakulteti (126,3 %), Musiqa ta'limi kafedrasida (182,4 %) hamda Ekologiya va geografiya kafedrasida jamoasi (106,2 %) e'tirof etilsin.

7. 2020-2021 o'quv yilida talabalar Respublika fan olimpiadasining yakuniy bosqichida universitetning 14 nafar iqtidorli talabalari 1, 2, 3-o'rinlarni egallaganligi hamda universitet jamoasi Respublika OTM o'rtasida faxrliligi 2-o'rinni egallaganligi e'tirof etilsin.

8. Ushbu qaror ijrosining nazorati ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor O.S. Qahhorov zimmasiga yo'qatilsin.

#### **IV. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishi bo'yicha:**

4. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligini karantin qoidalariga rioya qilgan holda "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!" shiori ostida universitet miqiyosida nishonlash to'g'risida.

**ESHITILDI: A.M. Kadirov (Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor)**  
O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligi munosabati bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlariga tayyorgarlik to'g'risida axborot berdi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada o'tkazish hamda Respublika komissiyasi majlisining 1-sonli bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida universitet rektorining 2021-yil 16-fevraldagi 110-U (01) sonli buyrug'i ishlab chiqildi. Unga ko'ra quyidagi ishlar amalga oshirildi. "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" g'oyasini o'zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy hamda targ'ibot-tashviqot tadbirlari dasturi ijrosi yuzasidan universitet chora-tadbirlar rejasida tasdiqlandi. Chora-tadbirlar rejasida barcha fakultetlarda o'tkaziladigan tadbirlarda hududimizga xos an'analar, urf-odatlar va muhim jihatlarni aks ettirish hamda tadbirlarni rasmiyatchilik, balandparvozlik holatlariga yo'l qo'ymasdan, keng jamoatchilik vakillarini jalb etgan holda, professor-o'qituvchi va talaba-yoshlarning qalbi va ongiga yetib boradigan, ularning ruhi va kayfiyatini ko'taradigan, yangi marralar sari ilhomlantiruvchi mazmun va shakllar asosida o'tkazishga alohida e'tibor qaratildi. Rejaga muvofiq :

O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi muallifi, O'zbekiston Qaxramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligini keng nishonlash maqsadida tanlov e'lon qilindi va 1-15-may kunlari @buxdu\_5tashabbus hamda <https://t.me/MANAVIYATLIINSONLAR> rasmiy kanallarida Abdulla Oripov va O'tkir Hoshimov hayoti va ijodiga bag'ishlab #eng\_yaxshi\_rasm(yokiillustratsiya), #eng\_yaxshi\_parcha,#eng\_yaxshi\_insho, #eng\_yaxshi\_sher, #eng\_yaxshi\_chellendj\_tashkilotchisi nominatsiyalarida ijodiy ishlar tanlovi e'lon qilindi. Ishtirokchilarning ijodiy ishlari Hakamlar tomonidan baholanib, g'oliblarga maxsus diplomlar taqdim etildi. 21-may kuni soat 12.00 da Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limida Viloyat prokuror kubogining universitet bosqichi o'tkazildi. Universitet bosqichida 1-2-3 o'rinlarni egallagan talabalar viloyat bosqichiga yo'llanma oldilar.

Buxoro viloyatida Mustaqilligimizning 30 yillik bayrami arafasida "Ko'hna va boqiy Buxoro" monumenti oldida «Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik» shiori ostidagi «Uch avlod uchrashuvi» ma'naviy-ma'rifiy tadbirlari o'tkazildi. "Labi hovuz" me'moriy ansamblida Respublikamiz mustaqilligining 30 yilligi munosabati bilan "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" shiori asosida "Uch avlod uchrashuvi" bayram tadbirlari tashkil etildi. Bu jarayonda BuxDU mas'ullari, iqtidorli



talabalar hamda san'atshunoslik fakulteti jamoasi konsert dasturi va ko'rgazmalari bilan faol ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buyo'q shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini nishonlash to'g'risida"gi 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-son qarori hamda vazirlikning 2020-yil 23-oktabrdagi 553-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida universitet rektorining 30-oktabrdagi 520-U-sonli buyrug'i ishlab chiqildi. Davlat arbobi Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini yuqori saviyada tashkil etish borasida Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limining chora-tadbirlar rejasi, Filologiya fakultetining "Yo'l xarita"si ishlab chiqildi. "Milliy tiklanishdan-milliy yo'qsalish sari" degan tamoyil asosida mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yarkan, Alisher Navoiyning adabiy merosini ma'naviyat qomusi sifatida o'rganishga ehtiyojimiz yanada ortmoqda. Prezidentimizning ertangi kunimiz egalari bo'lgan yoshlar ta'lim-tarbiyasini birinchi o'ringa qo'yayotgani, buyo'q ajdodlarimizga munosib izdosh bo'lishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berayotganligi-bularning barchasi mustaqilligimiz barqarorligini ta'minlash, yangi O'zbekiston poydevorini yo'qsak ma'naviyat va ma'rifat asosida barpo etishga qaratilgan. Shularni inobatga olgan holda:

2021-yil 2-7-fevral kunlari universitetning BuxDU Besh Tashabbus rasmiy kanalida Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligiga bag'ishlab "Navoiydan o'rgandim..." shiori ostida onlayn tanlov e'lon qilindi. Tanlovni adolatli baholash maqsadida professor-o'qituvchilardan tarkib topgan Hakamlar hay'ati shakllantirildi. Tanlov #eng\_yaxshi\_esse, #eng\_yaxshi\_rasm(yoki illustratsiya), #eng\_yaxshi\_parcha, #eng\_yaxshi\_insho, #eng\_yaxshi\_sher nominatsiyalarida o'tkazildi ([https://t.me/buxdu\\_5tashabbus/7353](https://t.me/buxdu_5tashabbus/7353)). Unda kanalga talabalarning 150 dan ortiq ishi qabul qilindi. 1 nominatsiya #eng\_yaxshi\_esse bo'yicha 1-o'rinni Filologiya fakulteti talabasi Ismoilova Xumora, 2-o'rinni Filologiya fakulteti talabasi Qahhorova Munisa, 3-o'rinni Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi Hotamova Iroda egalladi. 2 nominatsiya #eng\_yaxshi\_rasm(yoki illustratsiya) illustratsiya janri bo'yicha 1-o'rinni San'atshunoslik fakulteti P.Rozikova, 2-o'rinni Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi H.Saidmurodov, 3-o'rinni San'atshunoslik fakulteti talabasi G.Jabborova egalladi. Portret janri bo'yicha 1-o'rinni San'atshunoslik fakulteti talabasi X.Nusratova, 2-o'rinni Agronomiya va biotexnologiya fakulteti talabasi A.Sharipova, 3-o'rinni San'atshunoslik fakulteti talabasi Z.Raxmatova egalladilar. Miniatyura janri bo'yicha 1-o'rinni San'atshunoslik fakulteti talabasi F.Qurbonov, 2-o'rinni A.Ramazonov, 3-o'rinni Sh.Asrorova egalladilar. 3-nominatsiya #eng\_yaxshi\_parcha bo'yicha 1-o'rinni Agronomiya va biotexnologiya fakulteti talabasi M.Yadgarova, 2-o'rinni Kogon tuman 7-maktab 3-A sinf o'quvchisi A.Mizrobov, 3-o'rinni Harbiy ta'lim fakulteti M.Baxronov egalladilar. 4-nominatsiya #eng\_yaxshi\_insho bo'yicha 1-o'rinni Filologiya fakulteti talabasi N.Sattorova, 2-o'rinni tabiiy fanlar fakulteti talabasi M.Xodjiyeva, 3-o'rinni Filologiya fakulteti talabasi M.Qazoqova egalladilar. 5-nominatsiya #eng\_yaxshi\_sher bo'yicha 1-o'rinni Filologiya fakulteti M.Shodiyeva, 2-o'rinni maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi M.Hayitova, 3-o'rinni maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi M.Rajabova egalladilar. Alisher Navoiyning 580 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan onlayn tanlovda g'oliblikni qo'lga kiritgan talabalar universitet rektorining maxsus diplomlari bilan, universitet miqyosida tashkil etilgan tadbirlardada faol ishtirok etgan professor-o'qituvchilar hamda talabalar universitet rektorining tashakkurnomasi bilan taqdirlandi.

2021-yil 3-fevral kuni "Buxoronoma" gazetasining 9-sonida BuxDU dotsenti filologiya fanlari doktori L.Sharipovanning "Ajdodlarimizning bebaho merosi – abadiyatga daxldor ma'naviy xazina" nomli maqolalari chop etildi. Maqola Navoiy hamda uning izdoshi Bobur o'zbek adabiyotida tutgan o'rni to'g'risida yozildi.

2021-yil 3-fevral kuni Xorijiy tillar fakulteti Nemis va fransuz tillari kafedrasida o'qituvchilari M.Jabborova, Z.Hayotova, P.Bobokalonov ishtirokida talabalar turar joyida "Kafedra kunlari" doirasida "Alisher Navoiy so'z san'atining gulto'ji" mavzusida davra suhbatini tashkil etildi. Davra suhbatini savol-javoblar bilan juda qizg'in ko'tarinki ruhda o'tkazildi.

2021-yil 4-fevral kuni Agronomiya va biotexnologiya fakultetida Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi munosabati bilan madaniy-ma'rifiy tadbiri o'tkazildi. Tadbiri davomida shoirning hayoti va ijodiga bag'ishlangan asarlardan talabalar ishtirokida sahna ko'rinishlari, professor-o'qituvchilarning ma'ruzalari, kuy va qo'shiqlar, raqslar ijro etildi.

2021-yil 5-fevral kuni universitetda Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi munosabati bilan "Bashariyat ma'naviy yo'qsalishi va yoshlar tarbiyasida Alisher Navoiy merosining ahamiyati"

mavzusida Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani Bo‘lib o‘tdi. Anjuman O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti hamkorligida tashkil etilib, unda universitet rektori O.X.Xamidov, Filologiya fakulteti dekani D.Rajabov, Filologiya fakultetining O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri H.Eshonqulov, Filologiya fakulteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri A.Axmedov, tayanch doktorantlar, professor-o‘qituvchilar, talabalar ishtirok etdilar. Manbalarga ko‘ra, madrasalarning naq 12 ming nafar talabasi to‘liq Navoiy hazratning ta‘minotlarida bo‘lgan, ya‘ni u zot bu talabalarning mavsumiy kiyim-kechagidan tortib, o‘quv qurollariyu oziq-ovqatiga qadar o‘z zimmalariga olganlar va yana ularga stipendiya ham joriy qilganlar. Navoiyga qarashli madrasalardagina talabalarni darsdan qoldirib, jamoat ishlariga jalb qilish, masalan, madrasa ko‘chasini tozalash kabi ishlarga jalb qilish ma‘n etilgan bo‘lib, barcha ishlarga hazrat hisoblaridan mardikor yollangan. Bu madrasalarning o‘quv xonalariyu yotoqxonasi jihozlari, hatto shamga qadar Navoiyning hisobidan bo‘lgan.

2021-yil 9-fevral kuni Alisher Navoiy tavallud topgan kun munosabati bilan universitetda ulug‘ mutafakkir shoirga atab o‘rnatilgan byust poyiga erta tongdan universitet rektori O.X.Xamidov boshchiligida O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo‘limi rahbari, “Buxoronoma” gazetasi bosh muharriri Shodmon Sulaymon, prorektorlar, dekanlar, keng jamoatchilik vakillari, ma‘naviyat targ‘ibotchilari, talaba-yoshlar ishtirokida gulchambar qo‘yildi. So‘zga chiqqan “Buxoronoma” gazetasi bosh muharriri Shodmon Sulaymon, professor-o‘qituvchilar Alisher Navoiy buyo‘q davlat arbobi sifatida xalqparvarlik, adolatparvarlik, tinchlikparvarlik g‘oyalari asarlarida keng targ‘ib etib, siyosatdagi halol, pok ulamolarni ko‘kka ko‘targanini qayta-qayta e‘tirof etishdi. Tadbir davomida talabalar Alisher Navoiyning g‘azallaridan aytib berishdi.

2021-yil 9-fevral kuni an‘anaga aylangan holda Alisher Navoiy tavallud sanasi bayramona tarzda universitetning Bosh yig‘ingohida nishonlandi. Tadbirda yoshlar bilan ishlash, ma‘naviyat va ma‘rifat prorektori A.Kadirov, filologiya fanlari doktori Sh.Hayitov hamda bir qator navoiyshunos olimlar, professor-o‘qituvchilar ishtirok etdilar. Tadbirning badiiy qismida shoirning asarlaridan sahna ko‘rinishlari, kuy va qo‘shiq, raqslar, g‘azallar talabalar tomonidan mahorat bilan ijro etildi.

2021-yil 9-fevral kuni universitetning foyyesida San‘atshunoslik fakulteti talabalari ishtirokida Alisher Navoiy portretini chizish bo‘yicha master klass darsi tashkil qilindi. Talabalar o‘z iste‘dodidan kelib chiqib, buyo‘q shoirning portretini bor mahorat bilan chizishdi. Ijodiy ishlar professor-o‘qituvchilar tomonidan baholanib, g‘oliblikni qo‘lga kiritgan talabalar universitet rektorining tashakkurnomalari bilan taqdirlandi.

2021-yil 10-fevral kuni Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan “Alisher Navoiy va 21 asr” nomli xalqaro ilmiy-nazariy anjumanning “Alisher Navoiy lirik merosining o‘rganish masalalari” shobasida Filologiya fakulteti f.f.d., professor D.H.Quvvatova “Alisher Navoiy lirikasida xazon fasli tasviri va uning zamonaviy she‘riyatidagi tadriji” mavzusida, filologiya fanlari doktori Sh.A.Hayitov “Komil Hofiz mug‘anniy orzusi” mavzusida ma‘ruzalari bilan ishtirok etdilar.

2021-yil 8-fevral kuni Pedagogika va Harbiy ta‘lim fakulteti talabalari ishtirokida Buxoro shahar 123-zaif eshituvchilar maxsus maktab internatida Navoiy hamda Bobur tavalludiga bag‘ishlangan “Bir asrning ikki dahosi” mavzusida bayram tadbiri o‘tkazildi. Tadbir davomida o‘quvchilarga ikki buyo‘q allomaning hayot yo‘llari g‘azallari-yu, ruboiylarida, sahna ko‘rinishlarida aks ettirildi.

2021-yil 9-fevral Tabiiy fanlar fakultetida Navoiyxonlik tadbiri tashkil etildi. Tabiiy fanlar fakulteti dekani E.Niyozov, yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari N.Jo‘rayev so‘zga chiqib, shoirning hayot yo‘li, ibratli xislatlari to‘g‘risida gapirib o‘tdilar. Navoiy temuriylar saroyiga yaqin bo‘lib, do‘sti va podshoh Husayn Boyqaroga qaratilgan g‘oyalarni ifodalab o‘tgan: dunyoning va shoh taxtining o‘zgaruvchanligi, ho‘qmdorning o‘z xalqi oldidagi majburiyatlari, xamsanavislik an‘analariga nisbatan Navoiy o‘zining ijtimoiy va siyosiy qat‘iyati va o‘ziga xosligi bilan ajralib turganligi tadbir davomida ta‘kidlandi. Tadbir talabalarning chiqishlari bilan ko‘tarinki ruhda davom etdi.

2021-yil 9-fevral kuni maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti Talabalar turar joyida buyo‘q siymo Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi munosabati bilan “El netib topqay menikim, Men o‘zimni topmasam” mavzusida kecha bo‘lib o‘tdi. Tadbirda dotsent, filologiya fanlari doktori L.Sharipovanning shoir to‘g‘risidagi ma‘ruzasi ishtirokchilar tomonidan zo‘r ishtiyok bilan tinglandi. Tadbir davomida talabalar tomonidan shoir asarlari asosida sahna ko‘rinishlari, g‘azalxonlik, kuy va qo‘shiq, raqslar ijro etildi.

2021-yil 8-fevral kuni Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyati axborot kutubxonasi markazida “Qalam bilan dunyoni olgan Navoiy” nomli navoiyxonlik kechasi bo‘lib o‘tdi. Adabiy-ma‘rifiy kechada

Buxoro davlat universiteti professor-o'qituvchilari: f.f.d., professor D.H.Quvvatova, f.f.n., dotsent H.O.Safarova, f.f.b. falsafa doktorlari N.Y.O'roqova, R.Z.Rajabova, tayanch doktorant Z.N.Sohibova, o'qituvchi R.Qodirova va "Nihol" to'garagi a'zolari bo'lgan talabalar, shuningdek, milliy gvardiya kursantlari, san'at maktabi o'quvchilari hamda kutubxona xodimlari ishtirok etishdi.

2021-yil 8-fevral kuni Xorijiy tillar fakulteti Gumanitar yo'nalishlarda chet tili kafedrasida o'qituvchilari ishtirokida Talabalar turar joyida "Hazrat Alisher Navoiyga ehtirom" mavzusida tadbir tashkil etildi. Tadbirda Filologiya va Iqtisodiyot va turizm fakulteti talabalari ishtirok etdi. Tadbir davomida talabalarga shoir hayoti va ijodi to'g'risidagi ma'lumotlar aytib o'tildi. Filologiya fakulteti talabalarining chiqishlari namoyish etildi. Tadbir bellashuv asosida o'tkazilib, unda talabalar 4 shart (tanishuv, g'azalxonlik, sahna ko'rinishi, erkin mavzu) asosida kuch sinashdilar. Iqtisod fakulteti talabalari Navoiy g'azallarini turli tillarda aytib berdilar.

2021-yil 8-fevral kuni Filologiya fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari T.Rajabov Buxoro gornizoni qo'riqlash batalyoniga tashrif buyurib, "Bir asrning ikki dahosi" mavzusida Navoiy va Bobur ijodiga bag'ishlab ma'ruza qildi. Ma'ruza davomida butun umrini turkiy til mavqeyini ko'tarish, turkiy adabiyot imkoniyatlarini dunyoga tan oldirish, turkiy davlatchilik asoslarini mustahkamlashga, jamiyatda haqiqat va adolat mezonlarini qaror toptirishga bag'ishlagan bobokalonimiz bu e'tirofga to'la-to'kis munosib va haqliligi, u haqidagi biografik ma'lumotlar, yozmishlarining deyarli barchasi to'liq saqlanib qolganligi, xalq ichida bu zotning hayoti va faoliyati bilan bog'liq rivoyat va afsonalar ham talaygina ekanligi, sababi odamlar o'zlariga va kelgusi avlodga yashash tarzi, qilmishlari ibrat, aytmish va yozmish so'zlari haqiqat bo'lgan zotlar to'g'risida ham hurmat, ham hikmat ma'nosida mana shunday og'zaki ijod namunalarini to'qib olishi to'g'risida gapirib o'tildi. Zamondoshlari uni «Nizomiddin Mir Alisher» deb ulug'laganlar. «Nizomiddin» — din nizomi deganidir. Ko'pincha, mansab egalariga nisbatan aytilgan «mir» — amir demakdir. Chunki u Husayn Boyqaro saroyidagi eng nufuzli amir bo'lgan. Alisher bolalikdan ma'rifatli oila muhitida tarbiya topdi deya ma'ruza qilindi.

2021-yil 9-fevral kuni "Kafedra kunlari" doirasida "Tilini mumtozlik darajasiga ko'targan siymo" mavzusida Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligiga bag'ishlangan tarix va madaniy meros fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari, huquq ta'limi" kafedrasida professor-o'qituvchilari ishtirokida talabalar turar joyida tadbir tashkil etildi. Tadbirni ochish uchun so'z tarix fanlari doktori, professor S.I.Inoyatovga berildi. Ustoz Alisher Navoiy ijodiga hurmat bilan to'xtalib, oradan olti asr o'tgan bo'lsada Alisher Navoiy ilgari surgan g'oyalar va fikrlar bugungi kunimiz bilan ham hamohangligini ta'kidlab o'tdilar. Shuningdek, bugungi kunda Alisher Navoiy ijodini o'rganish bo'yicha olib borilayotgan ishlar, Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan chiqarilgan farmonlar, ilgari surilayotgan konsepsiyalarga to'xtalib bu siyosatni qo'llab-quvvatlab har bir yosh buyo'q mutafakkirning ijodini chuqur o'rganishi kerakligini uqtirdilar. U kishi so'zlarida Navoiy dahosi tufayli insoniyat tarixida dunyoning turli joylarida yashayotgan turkiy xalqlar yakqalam qilinganligini, millat ma'naviy merosi umumjahon xazinasidan mustahkam o'rin olganligini, Mustaqil O'zbekistonda Navoiyni anglash davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini, respublikadagi eng yirik viloyatlardan biri va uning markazi, O'zbekiston Davlat mo'qofoti, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot instituti, opera va balet akademik teatri, O'zbekiston Davlat kutubxonasi, Samarqand Davlat universiteti va boshqa yuzlab madaniy-ma'rifiy muassasalar, jamoa xo'jaliklari ulug' shoir nomi bilan atalayotganligini aytib o'tdilar.

2021-yil 9-fevral kuni San'atshunoslik fakulteti 12-1 mad-20 guruh talabalari ishtirokida Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi munosabati bilan tadbir tashkil etildi. Tadbirda professor-o'qituvchilar kafedra mudirlari ishtirok etdilar. Tadbir davomida talabalar tomonidan davlat arbobining hayoti va ijodigi mansub voqealar, g'azallar, ruboiylar ijro etildi.

2021-yil 10-fevral kuni Buxoro shahar kasb-hunar maktabida Alisher Navoiy va Zaxiriddin Muhammad Boburlarning tavallud topgan sanasi munosabati bilan "Nazm ummonida ikki dur" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda universitetning Filologiya fanlari doktori Sh.A.Hayitov o'z ma'ruzalari bilan tadbirni ochib berdilar.

Buxoro tuman Olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatida Hazrat Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini va Zaxiriddin Mirzo Bobur tavalludining 538 yilligini munosib nishonlash maqsadida "Buyo'q siymolarni yod etib" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda Buxoro davlat universitetining "O'zbek filologiyasi" fakulteti Filologiya fanlari doktori Sh.A.Hayitov "Komillikka intilish" mavzusidagi ma'ruzasi tinglandi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Buxoro viloyat bo'limi "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati bilan hamkorlikda Qishloq qurilish bank Kogon filialida buyo'q mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi munosabati bilan "Navoiy merosi - ma'naviy xazina" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi. Tadbirni "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zosi universitetning filologiya fanlari doktori, professor L.Sharipova olib bordi. Davra suhbatida L.Sharipova ishtirokchilarga Navoiyning beqiyos merosi, asarlarining purma'no hikmatlari, yoshlar tarbiyasida, jamiyatning rivojida shoirning mehnatlari, ijtimoiy masalalarda, adabiyotning yo'qsalishida olib borgan islohotlari to'g'risida gapirib o'tdi. Davra suhbatida L.Sharipova ishtirokchilarning savollariga javob berdilar.

Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligiga bag'ishlab Buxoro tuman 49-umumiy o'rta ta'lim maktabida "Qalblar ummonida gavhar Navoiy" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy kecha bo'lib o'tdi. Universitetning Filologiya fanlari doktori Hayitov Shavkat Axmadovich tadbirni "Alisher Navoiy talqinida komil inson" nomli ma'ruzasi bilan ochib berdi.

Vobkent tumanidagi 24-umumiy o'rta ta'lim maktabida Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi, Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 538 yilligiga bag'ishlab ana shu mavzudagi o'quv-amaliy seminar tashkil etildi. Unda Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti professorlari Shoira Axmedova, Shohsanam Davronova, Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoira Laylo Sharipova, tuman xalq ta'limi bo'limi mutasaddilari hamda umumta'lim maktablarining ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari ishtirok etishdi. Seminar davomida ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari Muhayyo Rustamova 5-sinf o'quvchilariga "Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni" mavzusida, Sarvinoz Jo'rayeva 6-sinf o'quvchilariga "Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub asari" mavzusida ochiq darslar o'tishdi. Tadbir doirasidan o'rin olgan badiiy kechada ikki shoir g'azal, ruboiy va dostonlari asosida tayyorlangan mumtoz she'riy kompozitsiyalar, sahna ko'rinishlari yig'ilganlar e'tiboriga havola etildi. Adabiyotshunos olimlar va ijodkorlarning ikki daho shoir hayoti va ijodiga oid mulohazalari tinglandi.

Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi munosabati bilan Buxoro shahar 86-son Maktabgacha ta'lim tashkilotida "Navoiyga ehtirom" nomli ma'naviy-ma'rifiy adabiy kecha bo'lib o'tdi. Tadbirni Universitetning Filologiya fanlari doktori Shavkat Hayitov "Navoiyning bolalik davri" ma'ruzasi bilan ochib berdi.

Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi munosabati bilan Buxoro shahrining 23-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'quvchilari hamkorligida "Ziyoga yo'g'rilgan -bola Alisher" nomli ma'naviy-ma'rifiy adabiy kecha bo'lib o'tdi. Tadbirni Universitetning Filologiya fanlari doktori Shavkat Hayitov "Navoiyning bolalik davri" ma'ruzasi bilan ochib berdi.

2021-yil 11-fevral kuni universitet Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tomonidan Pedagogika va harbiy ta'lim fakulteti talabalari tashabbusi asosida Alisher Navoiyning 580 yilligi, Boburning 538 yilligi munosabati ma'naviy-ma'rifiy tadbiri bo'lib o'tdi. Undagi chiqishlar Navoiyning ijod yo'llari mashaqqatlari va biz yoshlarga meros qoldirgan xazinalardan bo'lgan satrlari bilan tadbir ishtirokchilarini bahramand etdi. Shoirlikka iqtidori bor talabalarning ijod mahsullaridan namunalardan namunalar eshitildi.

2021-yil 12-fevral kuni Xorijiy tillar fakulteti talabalari tomonidan navoiy va Bobur hayoti va ijodiga bag'ishlangan badiiy kecha bo'lib o'tdi. Tadbir davomida talabalar tomonidan sahna ko'rinishlari, g'azallar, qo'shiq va raqslar ijro etildi.

2021-yil 13-fevral kuni Bosh yig'ingohda jismoniy madaniyat fakulteti tomonidan g'azal mulkinging sultoni Mir Alisher Navoiyning 580 yilligi, shoh va shoir, buyo'q sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning 538 yilligi, hamda ularning hayoti va ijodiga bag'ishlab «Navoiyxonlik va Boburxonlik» kechasi tashkil etildi. Shuningdek, shoirning qalamiga mansub asarlar ko'rgazmasi tashkil etildi.

2021-yil 2-7-fevral kunlari MA'NAVIYATLI INSONLAR kanalida Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 538 yilligi munosabati bilan "Bobur g'azallari shaydosiman" shiori ostida 5 #eng\_yaxshi\_esse,#eng\_yaxshi\_rasm(yoki illustratsiya), #eng\_yaxshi\_parcha, #eng\_yaxshi\_insho, #eng\_yaxshi\_sher nominatsiyada tanlov o'tkazildi (<https://t.me/MANAVIYATLIINSONLAR/4625>) . Tanlovning Hakamlar hay'ati xulosasiga ko'ra 1 nominatsiya bo'yicha Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti 14.2 MT-20 guruh talabasi Hotamova Iroda 1-o'rin, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti 14.10 BTU 19 guruh talabasi Xodjayeva Marjona 2-o'rin, Qorako'l temir yo'l bekati xodimi Oltiboyev Mirzohid 3-o'rinni egalladi.

2 nominatsiya bo'yicha Illustratsiya janri bo'yicha San'atshunoslik fakulteti 12.1 TS 18 guruh talabasi Shokirov SHEROZJON 1-o'rinni, San'atshunoslik fakulteti 12.1 RT 20 guruh talabasi Roziqova

Parizod 2-o'rinni, San'atshunoslik fakulteti 12.1 RT 20 guruh talabasi Istamov Ikrom 3-o'rinni egalladi. Portret janri bo'yicha San'atshunoslik fakulteti 12.1 TS-18 guruh talabasi Majidova Rayxon 1-o'rinni, San'atshunoslik fakulteti 12.1 RT 20 guruh talabasi Dusqulova Noila 2-o'rinni, San'atshunoslik fakulteti 12.3 TS-20 Ibodov Mironshox 3-o'rinni egalladi. Miniatyura janri bo'yicha San'atshunoslik fakulteti 12.1 TS-18 guruh talabasi Olimova Hamroxon 1-o'rinni, San'atshunoslik fakulteti 12.1 TS 20 guruh talabasi Qurbonov Feruz 2-o'rinni, San'atshunoslik 12.1 RT 20 guruh talabasi Dusqulova Noila 3-o'rinni egalladi.

3 nominatsiya bo'yicha San'atshunoslik fakulteti talabasi Qodirov Shuhrat 1-o'rinni, Sirdaryo viloyati Guliston shahri 11 maktab 9-sinf o'quvchisi Safarboyeva Sevinch 2-o'rinni, Pedagogika fakulteti 4.2 PPS-20 guruh talabasi 3-o'rinni egalladi.

4 nominatsiya bo'yicha Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti 14.1 BTU-19 guruh talabasi Barotova Feruza 1-o'rinni, Filologiya fakulteti 6.6 uzb 19 guruh talabasi Murodova Dildora 2-o'rinni, Filologiya fakulteti 6.3 uzb 19 guruh talabasi Sattorova Nargiza 3-o'rinni egalladi.

5 nominatsiya bo'yicha Tarix va madaniy meros 9.1 tar 19 guruh talabasi Latipov Jasur 1-o'rinni, Xorijiy tillar 11.1 fra 19 guruh talabasi Fayzullayeva Feruza 2-o'rinni, Tabiiy fanlar fakulteti 2.2 geo 20 guruh talabasi Ro'zatov Safarmurod 3-o'rinni egalladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz yilligi munosabati bilan @buxdu\_5tashabbus rasmiy kanalida "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!" shiori ostida "Eng yaxshi maqola" tanlovi onlayn tarzda tashkil etilib, Hakamlar Hay'ati xulosasiga ko'ra 1-o'rinni Filologiya fakulteti talabasi Xo'jamurodova Iroda, 2-o'rinni Agronomiya va biotexnologiya fakulteti talabasi Istamova Mohigul, 3-o'rinni Filologiya fakulteti 6-3 uzb-20 guruh talabasi Vayisova Dilmurabonu qo'lga kiritdilar. Tanlovda 50 dan ortiq talabalar o'z maqolalari bilan ishtirok etdilar. G'olib talabalarga universitet rektori O.Xamidov tomonidan diplomlar topshirildi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz yilligi munosabati bilan @MANAVIYATLIINSONLAR rasmiy kanalida "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!" shiori ostida "Eng yaxshi foto va tasviriy ishlar" tanlovi onlayn tarzda tashkil etilib, Hakamlar Hay'ati xulosasiga ko'ra 1-o'rinni San'atshunoslik fakulteti 12-1RT-20 guruh talabasi Roziqova Parizod, 2-o'rinni Agronomiya va biotexnologiya fakulteti talabasi Istamova Mohigul, 3-o'rinni Tabiiy fanlar fakulteti 2-2 eko-19 guruh talabasi Obloqulova Malikabonu qo'lga kiritdilar. G'olib talabalarga universitet rektori O.Xamidov tomonidan diplomlar topshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston" gazetasida "Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda" nomli intervyusiga munosabat bildirish maqsadida universitetning rejasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra barcha fakultetlarga professor-o'qituvchilar, faol yoshlar munosabatlarini aks ettiruvchi maqolalar, videoroliklarni ommaviy axborot vositalarida hamda mahalliy gazetalarda yoritib borilishini ta'minlash vazifasi topshirildi. Bugungi kunda 12 ta pedagog xodimlar va 4 nafar talabalarning munosabatlari aks etgan maqola universitetning rasmiy sayti va rasmiy telegramm kanallarida yoritib borildi, 4 ta maqola mahalliy gazetalarda, 3 ta OAVdagi chiqishlar yoritildi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 30 yilligi munosabati bilan barcha fakultetlar binolarini, kirish qismini bannerlar, bayroqlar bilan bayramona bezash vazifalari topshirildi. Universitet binosining old qismi "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!" shiori bilan bezatildi. Shuningdek bino O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i hamda bayroqchalar bilan bezatildi.

### **Kun tartibidagi masala yuzasidan Kengash qaror qiladi:**

1.O'zbekiston Respublikasi Mutaqilligining 30 yilligi munosabati bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlariga tayyorgarlik to'g'risidagi masala yuzasidan Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor A.Kadirovning ma'ruzasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2.Barcha fakultetlarda o'tkaziladigan tadbirlarda hududimizga xos an'analar, urf-odatlar va muhim jihatlarni aks ettirish hamda tadbirlarni rasmiyatchilik, balandparvozlik xolatlariga yo'l qo'ymasdan, keng jamoatchilik vakillarini jalb etgan holda, professor-o'qituvchi va talaba-yoshlarning qalbi va ongiga yetib boradigan, ularning ruhi va kayfiyatini ko'taradigan, yangi marralar sari ilhomlantiruvchi mazmun va shakllar asosida o'tkazishga alohida e'tibor karatilsin (Mas'ul: Jamoat tashkilotlari rahbarlari, dekanlar, dekan muovinnari).

3. Joriy yil sentabr oyining birinchi o'n kunligida talaba-yoshlar o'rtasida taniqli olimlar, adiblar va san'atkorlarni jalb qilgan holda uchrashuvlar, jonli muloqotlar va suhbatlar, adabiy-badiiy kechalar, madaniy tadbirlar o'tkazilsin (Mas'ul: A.Kadirov, dekanlar, dekan muovnlari, kafedra mudirlari, jamoat tashkiloti rahbarlari).

4. "Ma'naviyat kuni" va "Axborot soati" mashg'ulotlarida mustaqillikning 30 yillik yubileyini keng nishonlash bo'yicha amalga oshiriladigan aniq, maqsadli, ta'sirchan, yoshlarimiz ruhiyati va kayfiyatini ko'taradigan davra suhbatlari, uchrashuvlar tashkil etilsin (Mas'ul: A.Kadirov, dekanlar, dekan muovnlari, kafedra mudirlari, guruh murabbiylari).

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor A.Kadirov zimmasiga yo'qlatilsin.

#### **V. TSNQB bo'yicha:**

5. Universitet professor-o'qituvchilarining 2020-2021 o'quv yilidagi faoliyati samaradorligini o'rganish natijalari to'g'risida

**ESHITILDI: M.Y.Ergashov** (TSNQB boshlig'i) buxoro davlat universitetida professor-o'qituvchilarning 2020-2021 o'quv yilidagi faoliyati samaradorligini o'rganish natijalari to'g'risida ma'lumot berdi.

Hurmatli Kengash a'zolari! O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 25-avgustdagi "O'zbekiston Ho'qumatining ayrim qarorlariga pedagogik faoliyat samaradorligi va sifatini oshirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi 246-son qarori va Vazirlar Mahkamasi Yoshlar siyosati, ta'lim, madaniyat va sport masalalari kompleksi majlisining 2015-yil 29-sentabrdagi 32-son bayoni, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2015-yil 15-oktabrdagi 399-son buyrug'i talablaridan kelib chiqib, universitetda pedagog – xodimlar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, ta'limning sifatini oshirish maqsadida Buxoro davlat universiteti rektorining 2020-yil 4-maydagi 291(01)-U-raqamli buyrug'i ishlab chiqildi. Shu buyruq asosida pedagog-xodimlarning o'quv yili yakunlari bo'yicha faoliyati samaradorligini baholash mezonlari tasdiqlandi. Har bir pedagog-xodim tomonidan o'tgan o'quv yili davomida amalga oshirilgan o'quv-metodik, tarbiyaviy, ilmiy faoliyatlari to'g'risidagi ishlarni asoslovchi hujjatlar universitet portfolio tizimi (<http://uniwork.buxdu.uz/>)ga muntazam ravishda joylashtirib borildi.

Buxoro davlat universitetida 2020/2021 o'quv yilida jami 1048 nafar professor-o'qituvchi pedagogik faoliyatini olib bordi.

823 nafar professor-o'qituvchi asosiy shtatda (145 nafar 1,5 hissada, 225 nafar 1,25 hissada, 385 nafar 1 hissada, 14 nafar 0,75 hissada, 45 nafar 0,5 hissada, 9 nafar 0,25 hissada) 196 nafar ichki o'rindosh 20 nafar tashqi o'rindosh. Asosiy shtatdagi (1 hissa) 3 nafar pedagog-xodimning faoliyati samaradorligi uniwork tizimida 0 ball bilan baholangan.

<b>№</b>	<b>F.I.SH.</b>	<b>Lavozimi</b>	<b>Asosiy</b>	<b>Hissa</b>	<b>Natija (ball)</b>
1	Jalolov Elbek Baxshulloyevich	Biologiya kafedrasida o'qituvchisi	Asosiy	1	0
2	Baxranova Dilnoza Axmedovna	Organik va fizkolloid kimyo kafedrasida o'qituvchisi	Asosiy	1	0 dekret
3	Elmanova Mastura Toshnazarova	Ingliz tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi	Asosiy	1	0

Shuningdek, asosiy shtatda 0,5 hissada faoliyat olib borgan) 9 nafar PO'ning faoliyati samaradorligi ham uniwork tizimida 0 ball bilan baholangan.

<b>№</b>	<b>F.I.SH.</b>	<b>Lavozimi</b>	<b>Asosiy</b>	<b>Hissa</b>	<b>Natija (ball)</b>
----------	----------------	-----------------	---------------	--------------	----------------------

	Voxidov Anvar Tillovich	Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi	Asosiy	0,5	0
2	Mirzayev Tolib Turakulovich	Axborot texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi	Asosiy	0,5	0
3	Mustafoyev Shaxzod Mamanazar ugli	Axborot texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi	Asosiy	0,5	0
4	Niyazova Maxsuma Ilyasovna	Buxoro tarixi kafedrası dotsenti	Asosiy	0,5	0
5	Ochilov Ulug'bek Sayfullovaich	Ingliz adabiyotshunosligi kafedrası o'qituvchisi	Asosiy	0,5	0
6	Sevinchov Ne'mat Gulboyevich	Organik va fizkolloid kimyo kafedrası dotsenti	Asosiy	0,5	0
7	Hamidov Maxmud	Tuproqshunoslik kafedrası dotsent	Asosiy	0,5	0
8	Samadov Olim Navro'zovich	Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası dotsenti	Asosiy	0,5	0 kasal
9	Pardayev Shameddin Shametdinovich	Biologiya kafedrası o'qituvchisi,	Asosiy	0,5	may oyidan ishga qabul qilingan

Asosiy shtatdagi (0,25 hissa) 1 nafar PO'ning faoliyati samaradorligi uniwork tizimida 0 ball bilan baholangan.

1	Radjabov Sharif Atamuradovich	Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası dotsenti	Asosiy	0,25	0
---	-------------------------------	---	--------	------	---

Izoh: Ichki o'rindosh (0,5 hissa) 3 nafar PO'ning faoliyati samaradorligi uniwork tizimida 0 ball bilan baholangan.

№	F.I.SH.	Lavozimi	Ichki o'rindosh	Hissa	Natija (ball)
1	Fayziyev Rustamjon Ilxomovich	Axborot texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi	Ichki o'rindosh	0,5	0
2	Hamidov SHERALI Shirinovich	Matematik analiz kafedrası o'qituvchisi	Ichki o'rindosh	0,5	0
3	Sho'qurov Xursand Gadoyevich	Matematik analiz kafedrası o'qituvchisi	Ichki o'rindosh	0,5	0

Izoh: Ichki o'rindosh (0,25 hissa) 16 nafar PO'ning faoliyati samaradorligi uniwork tizimida 0 ball bilan baholangan.

№	F.I.SH.	Lavozimi	Ichki o'rindosh	Hissa	Natija (ball)
1	Boltayev Abdurahim Amonovich	Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası o'qituvchisi	Ichki o'rindosh	0,25	0
2	Kurbonov O'qtam Radjabovich	Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası o'qituvchisi	Ichki o'rindosh	0,25	0

3	Kurbonov Firuz Golibovich	Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası o'qituvchisi	Ichki o'rindosh	0,25	0
4	Mirzayeva Aziza Shavkatovna	Ingliz adabiyoti va stilistikasi kafedrası o'qituvchisi	Ichki o'rindosh	0,25	0
5	Radjabova Madina Rahimqizi	Ingliz adabiyoti va stilistikasi kafedrası o'qituvchisi	Ichki o'rindosh	0,25	0
6	Sayliyeva Moxinur Raxmiddinovna	Ingliz adabiyoti va stilistikasi kafedrası o'qituvchisi	Ichki o'rindosh	0,25	0
7	Sattorova Zarnigor To'lqinovna	Gumanitar yo'nalishlarda chet tillar kafedrası o'qituvchisi	Ichki o'rindosh	0,25	0
8	To'rayeva Mavjuda Zulfiqorovna	Ingliz adabiyotshunosligi kafedrası o'qituvchisi	Ichki o'rindosh	0,25	0
9	Urazov Bobir Baxtiyorovich	Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası o'qituvchisi	Ichki o'rindosh	0,25	0
10	Xodjayeva Fotima Nabixonovna	Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası o'qituvchisi	Ichki o'rindosh	0,25	0
11	Habibova Manzila Nuriddinovna	Ingliz adabiyoti va stilistikasi kafedrası o'qituvchisi	Ichki o'rindosh	0,25	0
12	Hamroyev Yunus Yuldoshevich	Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi	Ichki o'rindosh	0,25	0
13	Shamamedova Zinnat Xayrulloevna	Ingliz adabiyoti va stilistikasi kafedrası o'qituvchisi	Ichki o'rindosh	0,25	0
14	Shamsiyeva Zilola Askarovna	Buxoro tarixi kafedrası o'qituvchisi	Ichki o'rindosh	0,25	0
15	Sharifova Shaxloxon Shavkatovna	Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrası o'qituvchisi	Ichki o'rindosh	0,25	0
16	Sharopov Dilshod Ravshan ugli	Buxoro tarixi kafedrası o'qituvchisi	Ichki o'rindosh	0,25	0

Universitet bo'yicha ichki o'rindosh sifatida faoliyat olib borayotgan 196 nafar o'qituvchining 19 nafarining faoliyati 0 ga teng.

O'tgan o'quv yili davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan 8 nafar kafedra mudiri faoliyatini alohida ta'kidlash lozim. Iqtisodiyot kafedrası mudiri A.J. Abdullayev (100,5 ball), pedagogika kafedrası mudiri Sh.SH. Olimov (96,5 ball), amaliy matematika va axborot texnologiyalari kafedrası mudiri O.I. Jalolov (90 ball), fizika kafedrası mudiri Sh.SH. Fayziyev (89 ball), axborot texnologiyalari kafedrası mudiri N.S.Sayidova (88 ball), boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası mudiri A.R.Hamroyev (84 ball), ingliz tilshunosligi kafedrası Z.I. Rasulov (82,5), matematik analiz kafedrası mudiri H.R.Rasulov. (80,5 ball) to'plashga muvofiq bo'lganlar. 11 nafar kafedra mudirining faoliyati 70-78,5 ball oralig'ida, 13 nafar kafedra mudirining faoliyati 60-68 ball oralig'ida, 5 nafar kafedra mudirining 35,5-59,5 ball oralig'ida baholangan. CHHT fakulteti boshlig'i A.Boboyevning ma'lumotlari tizimga kiritilmagan.

Oldingi o'quv yilida o'tkazilgan kengashda barcha professor- o'qituvchilarning faoliyat samaradorligini 110 ballik tizim asosida baholashda quyidagi ball chegarasi belgilab qo'yilgan edi.

a) Fan doktori, professorlar – 70 va undan yuqori.

b) Dotsentlar - 65 va undan yuqori.

1) Katta o'qituvchilar – 60 va undan yuqori.

2) O'qituvchilar - 55 va undan yuqori.

Agar shu asosda universitetda faoliyat yuritayotgan 43 nafar fan doktorlari, professorlarning faoliyati tahlil qilinsa, 24 nafar (56%) fan doktori, professorlarning faoliyati shu talabga javob beradi. Pedagogika kafedrası mudiri, p.f.d., prof. Sh.SH.Olimov (96,5 ball), fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrası professori M.J.Abdullayev (92 ball), i.f.d., dots. O.S.Qahhorov (0,5 hissa 89,5 ball), i.f.d, prof. O.H.Xamidov (0,5 hissa 87 ball), f.f.d., prof. D.S.O'rayeva (86 ball), f.f.d., prof. D.H.Quvvatova (84



ball), boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini mudiri, p.f.d. A.R.Hamroyev (84 ball), ekologiya va geografiya kafedrasini professori A.E.Xolliyev (83,5 ball), xorijiy tillar fakulteti dekani, f.f.d. M.M.Jo'rayeva (83 ball), ingliz adabiyoti va stilistikasi kafedrasini professori, f.f.d. M.Q.Baqoyeva (79 ball), psixologiya kafedrasini mudiri, psixologiya fanlari doktori, prof. Sh.R.Barotovlarnig faoliyat samaradorliklari ancha yuqori baholangan. Yuqorida qayd etilgan fan doktori, professorlarning faoliyatlari Oliy ta'lim muassasalarining pedagog xodimlari faoliyatini o'rganish mezonlarida belgilangan barcha ko'rsatkichlarga (o'quv-metodik faoliyati, tarbiyaviy va ilmiy faoliyati, oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishga qo'shgan hissasi, shaxsiy fazilatlarini) javob beradi. Ularning Scopus xalqaro bazada indekslangan jurnallar va mahalliy jurnallarda ko'p maqolalari chop etilgan. Xalqaro jurnallarda maqolalar chop etish bo'yicha fizika-matematika fakulteti dekani, p.f.d. H.O.Jo'rayev, differensial tenglamalar kafedrasini mudiri U.D. Durdiyev faoliyatlari ham tahsinga sazovor.

Xorijiy tillar fakulteti dekani filologiya fanlari doktori, professor v.b (0,5 xissa) M.M.Jo'rayevaning yutuqlari ham e'tiborga loyiq. 2020-yilda 1 ta monografiya, 1 ta mualliflik guvohnomasi, Scopus bazasidagi jurnallarda 2 ta, impakt faktori yuqori bo'lgan ilmiy jurnallarda 2 ta va Respublika OAK jurnalida 2 ta, Xalqaro konferensiyalarda 7 ta maqola va mafola tezislari e'lon qilingan. Fransuzcha-o'zbekcha, o'zbekcha-fransuzcha izohli lug'at (musiq va san'at sohasiga oid), shuningdek, sport sohasiga oid o'zbekcha-fransuzcha lug'at 2020-yilda nashr qilingan.

M.Jo'rayeva rahbarligida Filologiya fanining dolzarb ilmiy muammolari tadqiqi bo'yicha 1 nafar shogirdi 2020-yil dekabr oyida filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD ilmiy darajasini olgan. M.Jo'rayeva Germanistischen Institut der Westfälischen Wilhelms-Universität Münster (Germaniyaning Germanistika instituti, Myunster Vestfal universiteti «Erasmus» grant loyihasining (2018-2021-yillarda) koordinatori. 2020 yilda tadqiqotlarining xalqaro miqyosdagi iqtiboslik darajasi 71, h-indeksi 5 ko'rsatkichiga ega.

Uniwork tizimiga joylashtirilgan ma'lumotlarga ko'ra, qolgan 19 nafar fan doktori, professorlarning faoliyat samaradorlik ko'rsatkichlari juda past baholangan. Jumladan, islom tarixi va manbashunosligi va falsafa kafedrasining professori H.Y. Salomova (1 hissa 44 ball), Buxoro tarixi kafedrasini professori H.H.To'rayev (1 hissa 32 ball), fizika kafedrasining professori Sh.M.Mirzayev (1,25 hissa 27 ball), rus tili va adabiyoti kafedrasining professori F.A.Mo'minov (1 hissa 20 ball) faoliyatlari tizimda juda past ko'rsatkichga ega.

**8.6.1. Xorijiy tillar fakulteti dekani, nemis va fransuz tillari kafedrasida professori v.b. Jo'rayeva Malohat Muhammadovnaning professor ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish haqida.**

**ESHITILDI: N.G.Dilova** (Kengash kotibi, p.f.f.d.,(Ph.D)): - Kengash a'zolariga dotsent ilmiy unvoniga talabgor Jo'rayeva Malohat Muhammadovnaning O'zR OAKga yuborish uchun tayyorlagan hujjatlari Nizom talablariga mos kelishini hamda nomzodning mazkur unvonga loyiqligini ta'kidlab, tavsiya beruvchi kafedraning 2021-yil 26-avgustdagi 1-yig'ilishi, fakultetining 2021-yil 27-avgustdagi 1-yig'ilishi va Universitet ilmiy-texnik Kengashining 2021-yil 28-avgustdagi 1 - yig'ilishi bayonidan ko'chirmalar mavjudligini ma'lum qildi.

Shundan so'ng, kengash kotibi Jo'rayeva Malohat Muhammadovnaning 250 dan ortiq ilmiy ishlari nashr etilganligi, shulardan 3 ta darslik, 3 ta o'quv qo'llanma, 2 ta monografiya, 2 ta lug'at va 2 ta izohli lug'at, 1 ta badiiy roman tarjima, 10 dan ortiq o'quv-metodik qo'llanma, 15 dan ortiq maqola xorijiy jurnallarda va 10 dan ortiq OAK e'tirofidagi jurnallarda, 150 dan ortiq maqola xalqaro va respublika anjumanlarida chop etilganligi,

Xulosa qilib aytganda, nemis va fransuz tillari kafedrasida professori v.b. Jo'rayeva Malohat Muhammadovna OAKning professor ilmiy unvonini olish uchun qo'yilgan talablarini to'liq bajargan.

Kengash raisi O.X. Xamidov mazkur lavozimga talabgorning nomzodini tavsiya berish uchun ochiq ovoz berish taklifini kiritdi. Kengash a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab-quvvatlashdi.

Kengashda 73 nafar Kengash a'zosida 70 nafari ishtirok etdi.

Ochiq ovoz berish natijasi quyidagicha:

Talabgor: Jo'rayeva Malohat Muhammadovnaga 69 kishi "rozi", "qarshi" va buzilgan varaqalar yo'q.

Kengash raisi ushbu qarorini tasdiqlab berishni ovozga qo'ydi, Kengash a'zolari sanoq komissiyasining mazkur qarorini bir ovozdan ma'qulladilar. Qarshilar va betaraflar bo'lmadi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, kengash qaror qiladi:

1. nemis va fransuz tillari kafedrasida professori v.b. Jo'rayeva Malohat Muhammadovna professor ilmiy unvoniga tavsiya etilsin.

2. M.M.Jo'rayevaning hujjatlarini 10 kun muddatda O'zR OAKga yetkazish vazifasi Kengash kotibi N.G.Dilova zimmasiga yuklatilsin. (muddat: 2021-yil 16-avgustgacha)

### **8.6.2. Jahon tarixi kafedrası professori v.b. Hayitov Shodmon Axmadovich professor ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish haqida.**

**ESHITILDI: N.G.Dilova** (Kengash kotibi, p.f.f.d.,(Ph.D)): - Kengash a'zolariga professor ilmiy unvoniga talabgor Hayitov Shodmon Axmadovichning O'zR OAKga yuborish uchun tayyorlagan hujjatlari Nizom talablariga mos kelishini hamda nomzodning mazkur unvonga loyiqligini ta'kidlab, tavsiya beruvchi kafedra va fakultetining 2021-yil 26-avgustdagi 1 - tashqari yig'ilishi va Universitet ilmiy-texnik Kengashining 2021-yil 28-avgustdagi 1- yig'ilishi bayonidan ko'chirmalar mavjudligini ma'lum qildi.

Shundan so'ng, kengash kotibi Hayitov Shodmon Axmadovichning 70 dan ortiq ilmiy ishlari nashr etilganligi Shulardan, 1 ta darslik, 2 ta o'quv qo'llanma, 5 ta monografiya, xorijiy jurnallarda 10 ta va OAK e'tirofidagi jurnallarda 7 ta maqola va 5 ta xalqaro va 40 ta respublika anjumanlarida tezislari anjumanlarda chop etilganligi,

Xulosa qilib aytganda, Jahon tarixi kafedrası professori v.b. Hayitov Shodmon Axmadovich OAKning professor ilmiy unvonini olish uchun qo'yilgan talablarini to'liq bajargan.

Kengash raisi O.X. Xamidov mazkur lavozimga talabgorning nomzodini tavsiya berish uchun ochiq ovoz berish taklifini kiritdi. Kengash a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab-quvvatlashdi.

Kengashda 73 nafar Kengash a'zosida 70 nafari ishtirok etdi.

Ochiq ovoz berish natijasi quyidagicha:

**Talabgor:** Hayitov Shodmon Axmadovichga 70 kishi "rozi", "qarshi" va buzilgan varaqalar yo'q.

Kengash raisi ushbu qarorini tasdiqlab berishni ovozga qo'ydi, Kengash a'zolari sanoq komissiyasining mazkur qarorini bir ovozdan ma'qulladilar. Qarshilar va betaraflar bo'lmadi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, kengash **qaror qiladi:**

1. Jahon tarixi kafedrası professori v.b. Hayitov Shodmon Axmadovich professor ilmiy unvoniga tavsiya etilsin.

2. Hayitov Shodmon Axmadovichning hujjatlarini 10 kun muddatda O'zR OAKga yetkazish vazifasi Kengash kotibi N.G.Dilova zimmasiga yuklatilsin. (muddat: 2021-yil 16-sentabrgacha)

### **8.6.3. Texnologik ta'limi kafedrası mudiri Jo'rayev Akmal Razzoqovichning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish haqida**

**ESHITILDI: N.G.Dilova** (Kengash kotibi, p.f.f.d.,(Ph.D)): - Kengash a'zolariga dotsent ilmiy unvoniga talabgor Jo'rayev Akmal Razzoqovichning O'zR OAKga yuborish uchun tayyorlagan hujjatlari Nizom talablariga mos kelishini hamda nomzodning mazkur unvonga loyiqligini ta'kidlab, tavsiya beruvchi kafedraning 2021-yil 26-avgustdagi 1- yig'ilishi, fakultetining 2021-yil 27-avgustdagi 1- yig'ilishi va Universitet ilmiy-texnik Kengashining 2021-yil 28-avgustdagi 1- yig'ilishi bayonidan ko'chirmalar mavjudligini ma'lum qildi.

Shundan so'ng, kengash kotibi Jo'rayev Akmal Razzoqovichning 21 dan ortiq ilmiy ishlari nashr etilganligi Shulardan hammualliflikda 3 ta o'quv qo'llanma, intellektual mulk agentligining DGU guvohnomasi 2 ta, xorijiy jurnallarda 4 ta va 2 ta OAK e'tirofidagi jurnallarda, 2 ta xalqaro va 8 ta respublika anjumanlarida tezislari anjumanlarda chop etilganligi,

Xulosa qilib aytganda, Texnologik ta'limi kafedrası mudiri p.f.f.d. Jo'rayev Akmal Razzoqovichning OAKning dotsent ilmiy unvonini olish uchun qo'yilgan talablarini to'liq bajargan.

Kengash raisi O.X. Xamidov mazkur lavozimga talabgorning nomzodini tavsiya berish uchun ochiq ovoz berish taklifini kiritdi. Kengash a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab-quvvatlashdi.

Kengashda 73 nafar Kengash a'zosida 70 nafari ishtirok etdi.

Ochiq ovoz berish natijasi quyidagicha:

Talabgor: Jo'rayev Akmal Razzoqovichga 70 kishi "rozi", "qarshi" va buzilgan varaqalar yo'q.

Kengash raisi ushbu qarorini tasdiqlab berishni ovozga qo'ydi, Kengash a'zolari sanoq komissiyasining mazkur qarorini bir ovozdan ma'qulladilar. Qarshilar va betaraflar bo'lmadi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, kengash qaror qiladi:

1. Технологик ta'limi kafedrasini mudiri Jo'rayev Akmal Razzoqovichning dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etilsin.

2. Jo'rayev Akmal Razzoqovichning hujjatlarini 10 kun muddatda O'zR OAKga yetkazish vazifasi Kengash kotibi N.G.Dilova zimmasiga yuklatilsin. (muddat: 2021-yil 16-avgustgacha)

#### **8.6.4. Texnologik ta'limi kafedrasini dotsenti v.b. Sayfullayeva Dilafro'z Axmadovning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish haqida**

**ESHITILDI:** N.G.Dilova (Kengash kotibi, p.f.f.d.,(Ph.D)): - Kengash a'zolariga dotsent ilmiy unvoniga talabgor Sayfullayeva Dilafro'z Axmadovning O'zR OAKga yuborish uchun tayyorlagan hujjatlari Nizom talablariga mos kelishini hamda nomzodning mazkur unvonga loyqligini ta'kidlab, tavsiya beruvchi kafedraning 2021-yil 26-avgustdagi 1- yig'ilishi, fakultetining 2021-yil 27-avgustdagi 1- yig'ilishi va Universitet ilmiy-texnik Kengashining 2021-yil 28-avgustdagi 1- yig'ilishi bayonidan ko'chirmalar mavjudligini ma'lum qildi.

Shundan so'ng, kengash kotibi Sayfullayeva Dilafro'z Axmadovning 32 dan ortiq ilmiy ishlari nashr etilganligi Shulardan 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta monografiya, intellektual mulk agentligining DGU guvohnomasi 2 ta, 14 ta OAK e'tirofidagi jurnallarda, 2 ta xalqaro va 12 ta respublika anjumanlarida tezislari anjumanlarda chop etilganligi,

Xulosa qilib aytganda, Texnologik ta'limi kafedrasini dotsenti v.b., p.f.f.d. Sayfullayeva Dilafro'z Axmadovna OAKning dotsent ilmiy unvonini olish uchun qo'yilgan talablarini to'liq bajargan.

Kengash raisi O.X. Xamidov mazkur lavozimga talabgorning nomzodini tavsiya berish uchun ochiq ovoz berish taklifini kiritdi. Kengash a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab-quvvatlashdi.

Kengashda 73 nafar Kengash a'zosida 70 nafari ishtirok etdi.

Ochiq ovoz berish natijasi quyidagicha:

Talabgor: Sayfullayeva Dilafro'z Axmadovnaga 70 kishi "rozi", "qarshi" va buzilgan varaqalar yo'q.

Kengash raisi ushbu qarorini tasdiqlab berishni ovozga qo'ydi, Kengash a'zolari sanoq komissiyasining mazkur qarorini bir ovozdan ma'qulladilar. Qarshilar va betaraflar bo'lmadi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. Texnologik ta'limi kafedrasini v.b. dotsenti Sayfullayeva Dilafro'z Axmadovning dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etilsin.

2. Sayfullayeva Dilafro'z Axmadovning hujjatlarini 10 kun muddatda O'zR OAKga yetkazish vazifasi Kengash kotibi N.G.Dilova zimmasiga yuklatilsin. (muddat: 2021-yil 16-avgustgacha)

#### **8.7. BuxDU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazining psixologiya yo'nalishi bo'yicha qayta tayyorlash kursi ishchi o'quv reja va ishchi o'quv dasturlarini tasdiqqa tavsiya etish to'g'risida hamda O'UMLarini chop etishga ruxsat etish to'g'risida**

**ESHITILDI:** B.R.Adizov (mintaqaviy markaz direktori) – universitet kengashi a'zolariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-fevraldagi "Professional ta'lim muassasalarining

boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 106-sonli qaroriga asosan

professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini zamonaviy ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqqan holda yanada takomillashtirish tizimi joriy etilganligini qayd etib, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan oshirish maqsadida professional ta'lim muassasalarining pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi o'quv rejasining yangilangan namunali tuzilmasi asosida ishlab chiqilgan 216 soatlik maxsus dasturlar bo'yicha bir oy davomida ishdan ajralgan holda amalga oshirish ko'zda tutilganligi, qayta tayyorlash va malaka oshirish bo'yicha doimiy faoliyat ko'rsatadigan kurslar faoliyati 2021-yilning 1-aprelidan tashkil etilganligini ta'kidladi. Shu munosabati bilan universitet huzuridagi PKQT va MO mintaqaviy markazida professional ta'lim muassasalarining ona tili va adabiyoti, chet tili(ingliz), rus tili, tarix, matematika, informatika va AT, fizika va astronomiya, davlat va huquq asoslari, kimyo, biologiya fanlari o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirishga mo'ljallangan malaka oshirish yo'nalishlari uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan Namunaviy o'quv reja va namunaviy o'quv dasturlari asosida tuzilgan ishchi o'quv reja va ishchi o'quv dasturlari va tanlovfanlari namunaviy dasturlarin tasdiqqa tavsiya etilmoqda. Ishchi o'quv rejalari va ishchi dasturlarni vazirlikning 2017-yil 11-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlari professor-o'qituvchilari uchun trenerlik kurslarini tashkil etish to'g'risida"gi 551-sonli buyrug'i asosida Bosh ilmiy metodik markaz tomonidan tashkil etilgan trenerlar tayyorlash kursi mashg'ulotlariga ishtirok etib, BIMMning malaka oshirish haqidagi Sertifikatiga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar tomonidan tuzilib tegishli taqrizlar berilgan. Ishchi o'quv rejalari va ishchi o'quv dasturlarini tuzuvchi va taqrizchilarning asosiy qismi universitet kafedra mudirlari, professor-o'qituvchilari, universitet ilmiy kengashi a'zolari hisoblanadi. Yuqoridagilarni inobatga olib, universitet Ilmiy kengashidan 10 ta ishchi o'quv reja va 57 ta ishchi o'quv dasturlari va 10ta namunaviydasturlarni ma'qullashni so'raymiz.

Kengash raisi yuqorida bildirilgan taklifni kengash a'zolari hukmiga havola etib ovozga qo'ydi.

Universitet kengashi a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab-quvvatladilar. Qarshilar va betaraflar yo'q.

Kun tartibidagi masala muhokama qililib mazkur masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Markazning 2021-yilda tashkil etilgan Professional ta'lim yo'nalishlari malakasini oshirish kurslari (ona tili va adabiyot , chet tili(ingliz), rus tili, tarix, matematika, informatika va AT, fizika va astronomiya, davlat va huquq asoslari, kimyo, biologiya) yo'nalishlar ishchi o'quv rejalari, ishchi o'quv dasturlari hamda tanlov fanlarining namunaviy dasturlari tasdiqlansin.
2. 2021-yilda tashkil etiladigan Professional ta'lim yo'nalishlari malakasini oshirish kurslari ( ona tili va adabiyot , chet tili(ingliz), rus tili, tarix, matematika, informatika va AT, fizika va astronomiya, davlat va huquq asoslari, kimyo, biologiya) yo'nalishlar ishchi o'quv rejalari, ishchi o'quv dasturlari asosida tayyorlangan o'quv-uslubiy majmualarni chop etishga ruxsat etilsin.
3. Mazkur qaror ijrosini nazorati o'quv ishlari bo'yicha prorektor (R.Jumayev) va mintaqaviy markaz direktori (B.R.Adizov) zimmasiga yuklatilsin.

#### **8.8. BuxDU kengashining 2020-2021 o'quv yili ish rejasining bajarilganligi to'g'risidagi hisoboti**

**ESHITILDI: N.G.Dilova** (kengash kotibi) universitet kengashining 2020/2021 o'quv yili uchun "ish rejasi" 2020-yil 29-avgust oyidagi 1-Kengashining 1.2. **qarori** bilan kengash a'zolari ro'yxati 2020-yil 29-avgust oyidagi 1-Kengashining 1.1. **qarori** bilan tasdiqlangan bo'lib, Kengashlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Hay'ati qarorlari hamda buyruqlari asosida har oyda o'tkaziladigan kengash yig'ilishi masalalarini tegishli sohalar mas'ullariga qaror loyihalari tayyorlash, ularning bajarilishini nazorat qilish, Kengash a'zolari bilan muntazam hamkorlik qilish, Kengash qarorlari ijrosi ustidan muntazam monitoringni amalga oshirish, kengash qarorlarini bayonnoma bilan rasmiylashtirish va imzolab tasdiqlanishini ta'minlash kabi vazifalarni bajarib, o'quv yili davomida universitet rahbariyati va kengash

a'zolari bilan hamkorlikda tizimli ishlarni amalga oshirildi va **jami 20 ta Kengash yig'ilishlarini o'tkazildi.**

**Reja bo'yicha :** 10 ta kengash

**Rejadan tashqari:** 10 ta kengash

**Buxoro davlat universiteti Kengashining 2020/2021 o'quv yili ish  
rejasi bo'yicha ko'rilgan masalalar tahlili**

№	Kengashlar	Ko'rilgan masalalar			Rejaning bajarilishi
		Reja bo'yicha	Rejadan tashqari	Turli masalalar	Barcha masalalar bo'yicha
1	<b>Avgust kengash</b> <b>29.08.2020y</b>	6 ta	1 ta	6 ta	Kengash qarorlari tasdiqlangan va ijrosi ta'minlangan
2	navbatdan tashqari kengash 17.09.2020y	-	1 ta	2 ta	Kengash qarorlari tasdiqlangan va ijrosi ta'minlangan
3	navbatdan tashqari kengash 9.10.2020y	-	1 ta	3 ta	Kengash qarorlari tasdiqlangan va ijrosi ta'minlangan
4	<b>Sentabr kengash</b> <b>10.10.2020y</b>	5 ta	2 ta	2 ta	Kengash qarorlari tasdiqlangan va ijrosi ta'minlangan
5	navbatdan tashqari kengash 9.10.2020y	-	7 ta	1 ta	Kengash qarorlari tasdiqlangan va ijrosi ta'minlangan
6	<b>Oktabr kengash</b> <b>6.11.2020y</b>	4 ta	6 ta	5 ta	Kengash qarorlari tasdiqlangan va ijrosi ta'minlangan
7	<b>Noyabr kengash</b> <b>1.12.2020y</b>	4 ta	6 ta	5 ta	Kengash qarorlari tasdiqlangan va ijrosi ta'minlangan
8	navbatdan tashqari kengash 22.12.2020y	-	1 ta	3 ta	Kengash qarorlari tasdiqlangan va ijrosi ta'minlangan
9	<b>Dekabr kengash</b> <b>30.12.2020y</b>	8 ta	5 ta	5 ta	Kengash qarorlari tasdiqlangan va ijrosi ta'minlangan
10	<b>Yanvar kengash</b> <b>29.01.2021y</b>	6 ta	1 ta	7 ta	Kengash qarorlari tasdiqlangan va ijrosi ta'minlangan
11	navbatdan tashqari kengash 16.02.2021y	-	5 ta	2 ta	Kengash qarorlari tasdiqlangan va ijrosi ta'minlangan
12	<b>Fevral kengash</b> <b>4.03.2021y</b>	2 ta	7 ta	10 ta	Kengash qarorlari tasdiqlangan va ijrosi ta'minlangan
13	<b>Mart kengash</b> <b>10.04.2021y</b>	6 ta	4 ta	9 ta	Kengash qarorlari tasdiqlangan va ijrosi ta'minlangan
14	<b>Aprel kengash</b> <b>4.05.2021y</b>	7 ta	-	7 ta	Kengash qarorlari tasdiqlangan va ijrosi ta'minlangan
15	navbatdan tashqari kengash	-	3 ta	2 ta	Kengash qarorlari tasdiqlangan va ijrosi ta'minlangan

	27.05.2021y				
<b>16</b>	<b>May kengash</b> <b>2.06.2021y</b>	7ta	3ta	5 ta	Kengash qarorlari tasdiqlangan va ijrosi ta'minlangan
<b>17</b>	navbatdan tashqari kengash <b>17.06.2021y</b>	5ta	3ta	4ta	Kengashga tegishli masalalar bo'yicha ma'lumotlar tayyorlanmoqda
<b>18</b>	<b>Qo'shma kengash</b> <b>Iyun kengash</b> <b>25.06.2021y</b>	3 ta	2 ta		Kengash qarorlari tasdiqlangan va ijrosi ta'minlangan
<b>19</b>	<b>Iyun kengash</b> <b>3.07.2021y</b>	8 ta	9 ta	3 ta	Kengash qarorlari tasdiqlangan va ijrosi ta'minlangan
<b>20</b>	navbatdan tashqari kengash 26.06.2021y	3 ta	3 ta		Kengash qarorlari tasdiqlangan va ijrosi ta'minlangan
	<b>Jami</b>	<b>74 ta</b>	<b>70 ta</b>	<b>81 ta</b>	<b>225 ta masala</b>

Kengashining 2020/2021 o'quv yili ish rejasi bo'yicha belgilangan barcha masalalari tegishli qarorlar bilan tasdiqlanib, ijrolari ta'minlanishi uchun tegishli fakultet, bo'lim va kafedralarga yo'naldirilgan

2020/2021 o'quv yili davomida universitet kengashlari qarorlariga asosan O'zbekiston Respublikasi VM huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining qarorlari bilan ilmiy unvonlar berish tartibi to'g'risidagi nizom talablarini to'liq bajargan **52 nafar professor o'qituvchilar shundan, 11 nafari professor va 39 nafari dotsent ilmiy unvonlariga ega bo'lib**, diplomlari universitet rektori tomonidan taqdirlandi.

2020/2021 o'quv yili davomida universitet kengashi qarorlari bilan kafedra mudiri, professor va dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi lavozimlariga vakant o'rinlarga nomzodliklarni universitetda joriy etilgan buxdulekrontanlov tizimi orqali yashirin ovoz berish yo'li bilan tanlovlar o'tkazilib, 2020/2021 o'quv yili davomida жами 373 нафар профессор ўқитувчилар танловдан ўтишди. Шулардан **9 nafar kafedra mudiri, 17 nafar professor, 47 nafar dotsent, 58 nafar katta o'qituvchi, 152 nafar o'qituvchilarni** kafedralar bo'yicha tegishli lavozimlarga tasdiqlangan nomzodlar universitet kengashi qarori asosida tasdiqlanib, rasmiylashtirildi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib mazkur masala bo'yicha **kengash qaror qiladi:**

1. Universitet kengashi kotibi N.G.Dilovaning 2020-2021 o'quv yili kengashining ish rejasi bajarilishi holati bo'yicha bergan hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kengash a'zolari xulosasiga ko'ra, 2020-2021 o'quv yili kengashi ish rejasi bajarilishi qoniqarli deb topilsin.

3. 2021/2022 ўқув йили учун кенгаш режаси бўйича амалга ошириладиган ишлар сифати ва самарадорлиги янада оширилсин.

4. Ushbu qaror ijrosi Kengash kotibi N.G.Dilova zimmasiga yuklatilsin.

## **8.9. Buxoro davlat universiteti 2021-2022 o'quv yilida talabalar turar joyini oylik to'lov summasini belgilash va uzoq hududlardan kelgan talabalarni shartnoma asosida yotoqxonaga joylashtirish.**

**ESHITILDI:** Ushbu masala bo'yicha kengash kotibi, universitet rektori so'zga chiqib, bugungi kunda universitet yotoqxonalarida 2048 dona krovat bilan jihozlangan o'rin mavjudligini, yotoqxonalaridagi mavjud quvvatlarni ikki yarusli krovatlarni o'rnatish hisobiga o'rtacha 1,4 koeffitsiyentgacha oshirib, optimallashtirish hisobiga ushbu o'rinlar soni 2550 taga yetkaziladi, ya'ni 502 ta qo'shimcha yotoqxonalar o'rni paydo bo'ladi. Yotoqxonalar mebellarini qayta jihozlash, ta'mirlash va xarid

qilish bilan bog'liq xarajatlar uchun universitetning moliyalashtirish smetasida 6198,4 mln so'm mablag' sarflanishi rejalashtirilgan. Talabalar turar joyini saqlab turish va joriy ta'mirlash xarajatlarini uchun 2020-2021 o'quv yilida jami 3294 mln so'm xarajatlar amalga oshirilganligi haqida ma'lumot berdi.

Yuqoridagilarni inobatga olib amalga oshirilgan xarajatlar va mavjud o'rinlar sonidan kelib chiqqan holda 2021-2022 o'quv yilida talabalar turar joyini bir oylik to'lov summasini 193 012 so'm belgilash maqsadga muvofiq ekanligini bildirdi. Bundan tashqari o'rnatilgan tartib (*Vazirlikning 2019 yil 1 noyabrdagi 1019-sonli hamda universitet rektorining 2016-yil 9-noyabrdagi 1036-sonli buyruqlari bilan tasdiqlangan TTJ to'g'risidagi Nizom*)da chin yetim (ota-onasi vafot etganlar), Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari, Yoshlar ittifoqining TTJdagi posbonlari va 1-2-guruh nogironligi bo'lgan talabalar talabalar turar joyi **to'lovidan ozod etish** masalasini hamda yetim (ota-onalaridan biri vafot etgan), TTJ talabalar kengashi raisi, qavat sardorlari, bir oiladan ikki va undan ortiq talabasi (barchasi shartnoma asosida tahsil olgan taqdirda) borlar, "temir daftar" ro'yxati(sektor ma'lumotnomasi asosida)ga olingan oila farzandi bo'lganlar hamda 3-guruh nogironligi bo'lgan talabalarga **to'lovni 50% to'lash** imkoni berish masalasini gapirib ytdi.

Reja va moliya bo'limi boshlig'i B.Adizov Buxoro davlat universitetida 1 ta talabani 2021/2022 o'quv yilida TTJda istiqomat qilish xarajatlari kalkulyatsiyasi bilan kengash a'zolarini tanishtirdi. Ushbu kalkulyatsiya bayonnomaga ilova qilinadi.

Ushbu masala muhokamasi bo'yicha Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor O.U.Rashidov, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor A.M.Kadirov va boshqalar o'z fikr va takliflarini bildirib, 2021-2022 o'quv yilida talabalar turar joyini bir oylik to'lov summasini 193 012 so'm belgilanishini qo'llab - quvvatlashdi.

Kengash raisi 2021-2022 o'quv yilida talabalar turar joyini bir oylik to'lov summasini 193 012 so'm belgilanish to'g'risidagi masalani ovozga qo'ydi.

Kengash a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab - quvvatladilar. Qarshilar va betaraflar yo'q.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. Buxoro davlat universiteti 2021-2022 o'quv yilida talabalar turar joyini oylik to'lov summasini belgilash va uzoq hududlardan kelgan talabalarni shartnoma asosida yotoqxonaga joylashtirish haqidagi axborot ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Buxoro davlat universitetida 1 ta talabani 2021/2022 o'quv yilida TTJda istiqomat qilish xarajatlari bo'yicha ishlab chiqilgan kalkulyatsiyaga asosan 2021-2022 o'quv yilida talabalar turar joyini bir oylik to'lov summasini 193 012 so'm belgilansin.

3. O'rnatilgan tartib(*Vazirlikning 2019 yil 1 noyabrdagi 1019-sonli hamda universitet rektorining 2016 yil 9 noyabrdagi 1036-sonli buyruqlari bilan tasdiqlangan TTJ to'g'risidagi Nizom*)da chin yetim (ota-onasi vafot etganlar), Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari, Yoshlar ittifoqining TTJdagi posbonlari va 1-2-guruh nogironligi bo'lgan talabalar talabalar turar joyi **to'lovidan ozod** qilinsin.

4. Yetim (ota-onalaridan biri vafot etgan), TTJ talabalar kengashi raisi, qavat sardorlari, bir oiladan ikki va undan ortiq talabasi (*barchasi shartnoma asosida tahsil olgan taqdirda*) borlar, "temir daftar" ro'yxati(*sektor ma'lumotnomasi asosida*)ga olingan oila farzandi bo'lganlar hamda 3-guruh nogironligi bo'lgan talabalarga **to'lovni 50% to'lash** imkoni berilsin.

5. Kengashning ushbu qarori ijrosini ta'minlash Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor O.U.Rashidov zimmasiga yuklatilsin.

**8.9/1. Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti 2021-yil 28-avgustdagi 04-03/18-sonli xatiga asosan 2021-2022 o'quv yilida talabalar turar joyini oylik to'lov summasini belgilash va uzoq hududlardan kelgan talabalarni shartnoma asosida yotoqxonaga joylashtirish.**

**ESHITILDI:** Ushbu masala yuzasidan kengash raisi so'zni Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti direktori M.I. Daminovga berdi. Bugungi kunda institut yotoqxonasida 400 nafar talaba yashashi uchun o'rin mavjudligi, hamda ularga barcha sharoitlar yaratilganligi haqida ma'lumot berdi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti yangi tashkil etilganligini va Talabalar turar joyida istiqomat qiluvchi 1 talabani turar joy to'lovini belgilash uchun o'tgan yilgi xarajatlar mavjud emasligini inobatga olib, Buxoro davlat universitetining talabalar turar joyida yashovchi 1 talabaga to'lanadigan yotoqxonaga to'loviga mos ravishda Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti 2021-2022 o'quv yilida talabalar turar joyini bir oylik to'lov summasini 193 000 so'm belgilash maqsadga muvofiq ekanligini bildirdi. Bundan tashqari o'rnatilgan tartib (*Vazirlikning 2019 yil 1 noyabrdagi 1019-sonli hamda universitet rektorining 2016-yil 9-noyabrdagi 1036-sonli buyruqlari bilan tasdiqlangan TTJ to'g'risidagi Nizom*)da chin yetim (ota-onasi vafot etganlar), Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari, Yoshlar ittifoqining TTJdagi posbonlari va 1-2-guruh nogironligi bo'lgan talabalar turar joyi **to'lovidan ozod etish** masalasini hamda yetim (ota-onalaridan biri vafot etgan), TTJ talabalar kengashi raisi, qavat sardorlari, bir oiladan ikki va undan ortiq talabasi (barchasi shartnoma asosida tahsil olgan taqdirda) borlar, "temir daftar" ro'yxati(sektor ma'lumotnomasi asosida)ga olingan oila farzandi bo'lganlar hamda 3-guruh nogironligi bo'lgan talabalarga **to'lovni 50% to'lash** imkonini berish masalasini gapirib o'tdi.

Buxoro davlat universitetining Reja va moliya bo'limi boshlig'i B.Adizov Buxoro davlat universitetida 1 ta talabani 2021/2022 o'quv yilida TTJda istiqomat qilish xarajatlari kalkulyatsiyasi bilan kengash a'zolarini tanishtirdi. Ushbu kalkulyatsiya bayonnomaga ilova qilinadi.

Ushbu masala muhokamasi bo'yicha Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Ishlar boshqarmasi boshlig'i Sh.A. Raximov va boshqalar o'z fikr va takliflarini bildirib, 2021-2022 o'quv yilida talabalar turar joyini bir oylik to'lov summasini 193 000 so'm belgilanishini qo'llab - quvvatlashdi.

Kengash raisi 2021-2022 o'quv yilida talabalar turar joyini bir oylik to'lov summasini 193 000 so'm belgilanish to'g'risidagi masalani ovozga qo'ydi.

Kengash a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab - quvvatladilar. Qarshilar va betaraflar yo'q.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti 2021-2022 o'quv yilida talabalar turar joyini oylik to'lov summasini belgilash va uzoq hududlardan kelgan talabalarni shartnoma asosida yotoqxonaga joylashtirish haqidagi axborot ma'lumot uchun qabul qilinсин.

2. Buxoro davlat universitetida 1 ta talabani 2021/2022 o'quv yilida TTJda istiqomat qilish xarajatlari bo'yicha ishlab chiqilgan kalkulyatsiyaga asosan 2021-2022 o'quv yilida Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti talabalar turar joyini bir oylik to'lov summasini 193 000 so'm belgilansin.

3. O'rnatilgan tartib(*Vazirlikning 2019 yil 1 noyabrdagi 1019-sonli hamda universitet rektorining 2016 yil 9 noyabrdagi 1036-sonli buyruqlari bilan tasdiqlangan TTJ to'g'risidagi Nizom*)da chin yetim (ota-onasi vafot etganlar), Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari, Yoshlar ittifoqining TTJdagi posbonlari va 1-2-guruh nogironligi bo'lgan talabalar turar joyi **to'lovidan ozod** qilinsin.

4. Yetim (ota-onalaridan biri vafot etgan), TTJ talabalar kengashi raisi, qavat sardorlari, bir oiladan ikki va undan ortiq talabasi (*barchasi shartnoma asosida tahsil olgan taqdirda*) borlar, "temir daftar" ro'yxati(*sektor ma'lumotnomasi asosida*)ga olingan oila farzandi bo'lganlar hamda 3-guruh nogironligi bo'lgan talabalarga **to'lovni 50% to'lash** imkoni berilsin.

5. Kengashning ushbu qarori ijrosini ta'minlash Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Ishlar boshqarmasi boshlig'i SH.A.Raximov zimmasiga yuklatilsin.

## **8.10. Buxoro davlat universitetining Korrupsiyaga qarshi kurashish "Koplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi to'g'risida NIZOMni tasdiqlash to'g'risida**

**ESHITILDI:** Y.K.Quliyev (Buxoro davlat universitetining Korrupsiyaga qarshi kurashish "Koplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i) kengash a'zolariga Buxoro davlat universitetining Korrupsiyaga qarshi kurashish "Koplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi to'g'risida NIZOM i haqida ma'lumot berdi. Nizom ilova qilinadi.



Mazkur Nizom Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo’limining (keyingi o’rinlarda – Bo’lim) maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari javobgarligi, faoliyatini tashkil etish, xodimlarning funksional vazifalari hamda javobgarligini belgilaydi.

2. Bo’lim Buxoro davlat universitetining (keying o’rinlarda – universitet) tarkibiy bo’linmasi hisoblanadi.

3. Bo’limning faoliyati universitetda “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini olib borishga yo’naltirilgan bo’lib, o’z vakolatlari doirasida bevosita universitet rektoriga bo’ysunadi hamda Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi (keying o’rinlarda – vazirlik)ning Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo’limiga hisobot beradi.

4. Bo’lim o’z faoliyatida O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlariga, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, mazkur Nizom, universitetning ichki buyruqlari, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

5. Bo’lim o’z faoliyatini universitetning boshqa bo’linmalari bilan o’zaro hamkorlikda amalga oshirishi haqida ma’lumot berdi. Kengash a’zolaridan ushbu nizomni tasdiqlab berishni so’radi.

Ushbu masala bo’yicha **kengash raisi, O.X.Xamidov** so’zga chiqib, aynan Bo’limning maqsad va vazifalari universitetda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;

oliy ta’lim tizimida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini universitet miqiyosida amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosini ta’minlash; universitetda korrupsiyaga qarshi kurash “Komplaens nazorat” tizimini joriy etish va uni amalga oshirish; universitetda korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo’lgan yo’nalishlar hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash; universitetda korrupsiya yo’nalishlari namoyon bo’lishiga olib keladigan tizimli muommolar va ularni bartaraf etish bo’yicha tegishli takliflarni kiritgan holda axborot berib borish; universitetda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlar ijrosini ta’minlash; universitetda korrupsiyaga qarshi kurashishga yo’naltirilgan jamoatchilik nazoratini muvofiqlashtirib borish, shuningdek zamonaviy usullar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida korrupsiyaga qarshi monitoring olib borish; korrupsiyaga qarshi kurashish va jamoat nazorati sohasida umum e’tirof etilgan xalqaro standartlar va xorijning ijobiy tajribasini o’rganish hamda ilg’or jihatlarni tatbiq etish bo’yicha takliflar ishlab chiqish; universitetda korrupsiyaning holati, tendensiyalari va sabablari hamda korrupsiyaga qarshi choralar ko’rishning samaradorligi yuzasidan sotsiologik, ilmiy va boshqa tatqiqotlarni tashkil etish va takliflar ishlab chiqish; universitet huzuridagi Buxoro davlat universiteti Qorako’l akademik litseyi, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti, Buxoro davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazining korrupsiyaga qarshi kurashish yo’nalishidagi faoliyatini muvofiqlashtirish, universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun rektorga kiritish, universitetning ichki hujjatlarida aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo’yicha takliflarni ishlab chiqadi; xar chorakda va zaruratga ko’ra korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha amalga oshirilgan ishlar hamda universitetdagi korrupsiyaviy vaziyat haqida rektorga hamda Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo’limiga hisobot berishdan iborat ekanligini ta’kidladi.

Kengash raisi kengash a’zolaridan Buxoro davlat universitetining Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo’limi to’g’risida NIZOM ini tasdiqlab berishni ovozga qo’ydi.

Kengash a’zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo’llab - quvvatladilar. Qarshilar va betaraflar yo’q.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. Buxoro davlat universiteti Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo’limi boshlig’i Y.K.Quliyevning Buxoro davlat universitetining Korrupsiyaga qarshi kurashish

“Kopmlaens nazorat” tizimini boshqarish bo’limi to’g’risida NIZOMi haqida bergan axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Universitetning Korrupsiyaga qarshi kurashish “Kopmlaens nazorat” tizimini boshqarish bo’limi to’g’risida NIZOMi bir ovozdan tasdiqlansin.

3. Ushbu Nizomning mazmun-mohiyati universitetning barcha bo’lim va kafedralarida o’rganib chiqilsin.

Ushbu qaror ijro nazorati Korrupsiyaga qarshi kurashish “Kopmlaens nazorat” tizimini boshqarish bo’limi boshlig’i Y.K.Quliyev zimmasiga yuklatilsin.

### **8.11. Universitet jamoatchilik kengashining ishga qabul qilish bo’yicha professor-o’qituvchilar kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini zamon talablari asosida baholash mezonini tasdiqlash to’g’risida**

**ESHITILDI:** O.X.Xamidov (Kengash raisi, rektor) Universitet jamoatchilik kengashining ishga qabul qilish bo’yicha professor-o’qituvchilar kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini zamon talablari asosida baholash mezonini tasdiqlash masalasi haqida o’z fikrlarini bildirdi

Hozirda pedagog xodimlarni ishga olish Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 10-fevraldagi 20-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Oliy ta’lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to’g’risida»gi Nizom asosida amalga oshirilishi lozim.

Yangi O’zbekiston siyosatida xalqaro tajribalarga asoslanish, sifatli kadrlarni tanlashda rivojlangan mamlakatlardan Yaponiya, Koreya, Finlandiya, Germaniya tajribalaridan foydalanishga bosqichma-bosqich o’tish, ushbu jarayonni shaffof va ochiq tashkil etishda internetdan oqilona va samarali foydalanish zarurligini ta’kidladi.

Universitetning ichki qoidalarida ishga qabul qilish ochiq va shaffof usulda keng ommaga e’lon qilish orqali belgilab qo’yilgan. Bu talabga hatto universitet ichida yetarli nomzodlar mavjud bo’lgan taqdirda ham amal qilinadi. Chunki universitet tashqarisida ulardan-da munosib nomzodlar bo’lishi mumkin. Buni esa faqat ochiq va shaffof tanlov orqaligina aniqlash mumkin. Xullas, ochilgan bo’sh ish o’rni uchun har doim ichki va tashqi nomzodlar teng huquqlilik asosida raqobatlashadi.

Bundan tashqari, bo’sh ish o’rni to’g’risidagi e’lon ma’lum talablarga javob berishi lozim. Masalan, unda ishga oluvchi to’g’risida qisqacha ma’lumot, nomzodlarga qo’yiladigan bilim va malaka talablari, pedagog xodimdan aynan qanday vazifalarni bajarish kutilayotgani, ish sharoitlari haqida ma’lumot, professional o’sish istiqbollari va afzalliklari aniq ko’rsatib o’tilishi zarur.

Shundan kelib chiqib, Universitet jamoatchilik kengashining ishga qabul qilish bo’yicha professor-o’qituvchilar kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini zamon talablari asosida baholash mezonlari ishlab chiqilganligini va bu haqda barcha professor o’qituvchilar tanishtirilishi lozimligini ta’kidladi.

**So’zga chiqdi:** M.Y.Ergashov (TSNQB boshlig’i) kengash a’zolarini ishchi gurux tomonidan ishlab chiqilgan “Universitet jamoatchilik kengashining ishga qabul qilish bo’yicha professor-o’qituvchilar kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini zamon talablari asosida baholash mezonini” bilan tanishtirdi:

#### **Talabgor o’qituvchilarni ishga qabul qilish bo’yicha mezonlar:**

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni va ta’limga oid me’yoriy hujjatlar bilan tanish ekanligi;

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’limga oid farmonlari, qarorlari, mohiyati va ularda belgilangan ustuvor yo’nalishlar hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta’limga oid qarorlaridan xabardorligi;

3. O’quv-me’yoriy hujjatlar (DTS, malaka talablari, o’quv reja, ishchi reja, fan dasturi, ishchi fan dasturlari, yo’nalishlar va mutaxassisliklar klassifikatori) haqidagi tushunchasi;

4. O’quv, o’quv-metodik ishlarni rejalashtirish, tashkil etish va nazoratini amalga oshirishning metodlarini bilishi;

5. O’qitishda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish (Mutaxassislik fanlari sohasiga tegishli davriy, ilmiy nashrlardagi axborotlar bilan ishlashni bilish (Kasbiy faoliyat maqsadlarida kompyuter tarmoqlarida Internet ta’lim resurslaridan va xorijiy adabiyotlardan foydalanish) darajasi;

6. Malaka oshirish kurslaridan o’tganligi;

7. Xorijiy tillarni egallaganlik darajasi (Chet tillarning birida talab darajasida lingvistik (tinglab tushunish, gapirish, o'qish) hamda muloqot darajasi;

8. Talabgor pedagog xodimning mutaxassisligi bo'yicha bilim, ko'nikma, malakasi va kompetentlik darajasi;

9. Mutaxassislik fanlari sohasidagi ilmiy yangiliklar va axborotlardan xabardorligi va ulardan o'quv jarayonida foydalana bilishi;

10. Pedagogik jarayonda AKT, kompyuter texnik vositalari, Mikrosoft Offise dasturlari (Word, Excel, Pover Point, Access) yordamida o'quv-metodik materiallarni tayyorlashni bilishi

11. Zamonaviy ta'lim metodlarini, jumladan, interfaol shakldagi metodlarni bilishi va ularni ta'lim jarayoniga qo'llay olish darajasi;

12. Oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, rivojlangan davlatlarning ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonini tashkil etishning shakl, metod va vositalaridan xabardorligi;

13. Ta'limda kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va o'quv jarayonini tashkil etish tartibi (kredit, sinov krediti va h.k.) ni bilishi;

14. Talabalarning mustaqil ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlash maqsadida o'quv resurslarini yaratishda MOODLE dasturiy platformasidan foydalanish darajasi;

15. OAK e'tirof etgan jurnallarda hamda mutaxassislik yoki tadqiqot mavzui bo'yicha Web of Science, Skopus, Web of Knowledje, Matematiks, Chemikal Abstrakts, Springer kabi bibliografik bazalardan biriga kiradigan reytingi yuqori xalqaro jurnallarda maqolalar nashr etganligi;

16. Talabgorning pedagogik madaniyati, imedji va nutqiy kompetentlik darajasi.

TSNQB boshlig'i M.Y.Ergashovning yuqorida o'qib eshittirilgan mezonlar asosida ishga kiruvchi talabgorlarning baholanishi belgilanganligini aytib o'tdi.

Kengash a'zolari ushbu masala bo'yicha o'z taklif va fikrlarini bildirishdi. Universitet jamoatchilik kengashining ishga qabul qilish bo'yicha professor-o'qituvchilar kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini zamon talablari asosida baholash mezonini bugungi kunda hukumat tomonidan oliy ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlardagi ba'zi muammolarni yechishda yordam berishini ta'kidlashdi.

Kengash raisi O.X.Xamidov kengash a'zolaridan Universitet jamoatchilik kengashining ishga qabul qilish bo'yicha professor-o'qituvchilar kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini zamon talablari asosida baholash mezonini ochiq ovoz berish yo'li bilan qo'l ko'tarib tasdiqlab berishni so'radi.

Hamma rozi, qarshilar va betaraflar yo'q.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. TSNQB boshlig'i M.Y.Ergashovning Universitet jamoatchilik kengashining ishga qabul qilish bo'yicha professor-o'qituvchilar kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini zamon talablari asosida baholash mezonini haqidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Universitet jamoatchilik kengashining ishga qabul qilish bo'yicha o'qituvchilarning o'qituvchilar kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini zamon talablari asosida baholash mezonlari bir ovozdan tasdiqlansin.

3. Universitetga ishga qabul qilinadigan professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahorati jamoatchilik kengashi tomonidan ishlab chiqilgan mezonlar asosida shaffof va ochiq baholansin.

Buxoro davlat universiteti kengashi raisi 1-yig'ilish kun tartibiga kiritilgan masalalar muhokama qilinganligini va kengash o'z ishini yakunlaganligini ma'lum qildi. Kengash o'z ishini tugatdi.

**Kengash raisi**

**O.X.Xamidov**

**Kengash kotibi:**

**N.G.Dilova**

